

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma xuquqida

UDK

SANDIBOYEV ALISHER NAZARBЕКOVICH
Kofirqal'a- ilk o'rta asr yodgorligini o'rganilish tarixi

07.00.06 - Arxeologiya

Magistr akademik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya

Ilmiy rahbar:

t.f.n. A .E. Berdimurodov

Samarqand 2013

	MUNDARIJA	
	Kirish	3-8
I bob.	KOFIRQAL'A YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR	10
1.	Kofirqal'a yodgorligining joylashuvi va tarixiy topografiyasi	10-13
2.	Yodgorlikda mustaqillikgacha bo'lgan davrda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar	13-18
3.	Mustaqillik yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar	18—21
II bob.	KOFIRQAL'A YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR DAVOMIDA KULOLCHILIK SOHASIDA QO'LGA KIRITILGAN MUHIM NATIJALAR	22
1	Xumdonlar	22-26
2	Sopol idishlar tipologiyasi	26-28
3	Xo'jalik uchun mo'ljallangan sopol idishlar	28-32
4	Oshxona idishlari	32-36
5	Sopol buyumlardagi naqsh va belgilar	36-39
6	Kofirqal'a kulolchiligini Sug'dninig ilk o'rta asr hunarmandchiligida tutgan o'rni	39-41
III bob.	KOFIRQAL'ADA QILINGAN MUHIM KASHFIYOTLAR	42
1	Kofirqal'a bullalari	42-48
2	Kofirqal'a nauslari va ostadonlari	48-51
IV	KOFIRQAL'ANING TURAR JOY QURILMALARI VA	

bob	MUDOFaa tizimi.....	52
1	Kofirqal'a turar joylari.....	52-60
2	Kofirqal'a mudofaa tizimi.....	60-62
	Xulosa.....	63-65
	Adabiyotlar ro'yxati.....	66-
	Qisqartmalar.....	
	Illyustrativ albom.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq xalqimizning o'tmish tarixi boy madaniy merosini o'rganish, uni saqlash va kelajak avlodga yetkazishga hukumatimiz tomonidan aloxida e'tibor berildi. Xususan, yurtboshimiz I. A. Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas... Davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim" deb ta'kidlagani bejiz emas¹. Darhaqiqat, eng qadimgi o'tmishdan to hozirgacha bo'lgan davlatchiligimiz va uning rivojlanish bosqichlari tarixi shu hududda yashagan xalqlarning, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotini chuqur hamda keng o'rganish uchun katta imkoniyatlar yaratib berildi. Shu bois yurtimizning qadimgi sivilizasiya markazlaridan biri bo'lgan Sug'd siyosiy, madaniy hamda iqtisodiy hayotini o'rganish ham respublikamiz mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko'tarildi.

Malumki, Sug'd Markaziy Osiyoning yirik markaziy madaniy o'lkalaridan biri hisoblanib, hozirgi vaqtga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida hududda uch mingdan ziyod arxeologik yodgorliklar saqlanganligi aniqlangan. Ushbu arxeologik yodgorliklar o'zining tipologiyasi va turiga ko'ra qadimiy shaharlar, qo'rg'onlar, qarorgohlar, qishloqlar, ko'shklar qasrlar, qabriston kabilarga bo'linib, ularning asosiy qismini ilk o'rta asrlarga mansub arxeologik yodgorliklar tashkil etadi². Ammo, ilk o'rta asrlarga mansub arxeologik yodgorliklar ko'pchilikni tashkil qilsada, ularning faqat ayrimlaridagina keng qamrovli arxeologik qazishma ishlari olib borilgan, xolos.

¹Karimov I.A. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. – Тошкент, 1999. – Б. 138.

²Буряков Ю.Ф., Аскаров К.К. К типологии сельских поселений раннесредневекового Согда (по материалам южных районов Самаркандского оазиса) ИМКУ. Вып 28. –С., 1997-С.88

Shunday arxeologik yodgorliklaridan biri qadimiy Darg'om kanali qirg'og'ida joylashgan Kofirqal'a yodgorligidir.

Kofirqal'a yodgorligida dastlabki arxeologik tadqiqotlar o'tgan asrning ikkinchi choragida amalga oshirilgan bo'lib, keyingi arxeologik tadqiqotlar ayrim uzilishlar bilan hozirga qadar davom etib kelmoqda. Deyarli yuz yillik tadqiqotlar davomida yodgorlikning shakllanish va rivojlanish tarixi, bilan birga tariximizning ajralmas qismi bo'lgan Sug'dning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar qo'lga kiritildi va kiritilmoqda. Ushbu ma'lumotlar Sug'dning stratigrafiyasi, xronologiyasi, qurilish madaniyati, hunarmandchiligi hamda siyosiy holati borasidagi tarixiy ma'lumotlarga yanada aniqliklar kiritildiki, bu holat Kofirqal'ani istiqbolli yodgorlik ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda yodgorlikda olib borilgan tadqiqotlar va undan qo'lga kiritilgan natijalarga asoslanib yurtimiz va xorijiy ilmiy nashrlarda ko'plab ilmiy maqolalar chop etilgan. Ushbu maqolalar yodgorligining o'rganilish tarixini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Kofirqal'a yodgorligini o'rganish tarixini yoritish orqali nafaqat yodgorlik ahamiyatini, tarixda tutgan o'rnini balki uni tadqiq etishda ishtirok etgan olimlarning sarmashaqqat ishlarini, ularning qo'lga kiritgan yutuqlarini, etirof etishimiz Vatanimizning ilk o'rta asrlar tarixi xalqimiz moddiy madaniyatini yangi qirralarini yoritilishi guvohi bo'lamiz.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ilk o'rta asrga oid Kofirqal'a yodgorligi tadqiqotning asosiy obyekti bo'lsa, shu yodgorlikda arxeologik qazishmalar natijasida qo'lga kiritilgan moddiy madaniyat namunalari- xumdonlar, xo'jalik va oshxona idishlari, bullalar, tadqiqot natijasi sifatida elon qilingan ilmiy maqolalar dissertasiya predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Kofirqal'a yodgorligida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari-maqolalar, risolalar hamda

qo'lga kiritilgan moddiy madaniyat namunalarini ilmiy tahlil qilish va o'rganishdir. Tadqiqot vazifasi esa ushbu tahlil asosida Kofirqal'a yodgorligining o'rganilish tarixini yoritish bilan birga uning umumiy tadrijiy rivojlanish tarixi, ilk o'rta asr Sug'd diyorida madaniyat tarixida tutgan o'rnini yaxlit holatga keltirishdan iboratdir.

Tadqiqotning asosiy masalalari va kutilayotgan natijalar. Tadqiqot quyidagi asosiy masalalarni hal etishga qaratilgan:

-Yodgorlikning respublikamiz mustaqillikgacha va undan keyingi davr tarixshunosligini yoritish va shu orqali turli yillarda qo'lga kiritilgan natijalarni yaxlit tizimga solish;

-Arxeologik tadqiqotlar jarayonida qo'lga kiritilgan moddiy madaniyat namunalari-kulolchilik mahsulotlari, qurilish qoldiqlari va h.k. larni qiyosiy o'rganish va shu orqali Kofirqal'a ijtimoiy va iqtisodiy, siyosiy hayoti holatini yoritish;

Tadqiqotda ushbu masalalarni hal etish orqali qo'yidagi natijalarni yani, yodgorlikning Sug'd tarixida tutgan o'rni, keyingi yillarda qo'lga kiritilgan muhim natijalarni o'zida jamlagan tarixshunosligini yaxlit holatga keltirish nazarda tutilgan.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Kofirqal'a yodgorligini arxeologik va tarixiy jihatdan o'rganilishiga bag'ishlab yozilgan adabiyotlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1) Sobiq ittifoq davrida chop etilgan asarlar va ilmiy ishlar

2)Respublikamiz mustaqilligi yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar. Birinchi guruhga sovet hukmronligi davrida chop etilgan asarlar va ilmiy ishlar kiradi. Bu davrda yaratilgan G. V.Grigoryev, V.A.Shishkin, G.V. Shishkina, I.A.Suxarev, V.A. Nilsenlar tomonidan yodgorlik tarixi, rivojlanishiga doir ilmiy asarlar yaratilgan bo'lib, ularda qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Xususan, I.A. Suxarev va G.V. Grigoryev tomonidan olib borilgan dastlabki arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan xumdonlar va sopol idishlar tahlil qilingan holda yodgorlikning dastlabki davriy sanasi belgilanadi³.

Keyinchalik 1956-1957 yillarda V.A. Shishkin yodgorlikda qazishma ishlarini davom ettiradi⁴. Qazishmalar jarayonida yodgorlikda bir necha xonalar ochilib ilk o'rta asr qurilish madaniyatiga doir yangi ma'lumotlar qo'lga kiritiladi.

Ikkinchi guruhga, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari kiradi. O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingi davrda yaratilgan ilmiy asarlar va olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari majmuasi o'zbek xalqi moddiy va ma'naviy madaniyati tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida tadqiqot ishlari dastlab O'zR FA Arxeologiya instituti xodimi A.E. Berdimurodov tomonidan olib boriladi. Qazishma ishlari natijasida arkka kiradigan yagona darvoza o'rni ochiladi⁵.

Yodgorlikda keyingi qazishma ishlari 2001 yilda tashkil qilingan O'zbek-Italiya qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan davom ettiriladi. A. E. Berdimurodov rahbarligida har yili amalga oshiriladigan qazishma ishlarida turli yillarda o'zbek arxeologlaridan M.H. Pardayev, B.X. Matbabayev, S. Suyunov, M.K. Samibayev, K. Rahimov, ital'yan arxeologlaridan Mengi Enriko, S. Mantellini, B. Rondelli va D. Djorjetilar ishtirok etib kelishmoqda⁶.

³Григорьев Г.В. К вопросу о художественном ремесле до мусульманского Согда // КСИИМК. № 12. -М.-Л., 1946; Григорьев Г.В. Поселения древнего Согда (По данным исследования городищ Самаркандского района) КСИИМК. № 12. М.-Л., 1940; Григорьев Г. В. Городище Тали-Барзу. 1940

⁴Шишкин В.А. Узбекистанская археологическая экспедиция АН Уз ССР (Полевые работы 1956-1959 гг.) // ИМКУ. Вып. 2. -Т., 1961; Шишкин Г.В. Раннесредневековая сельская усадьба под Самаркандом // ИМКУ. Вып. 2. -Т., 1961.

⁵Бердимуродов А.Э., Аскаров К.К. Кофиркальнинг мудофаа усуллари ва тармоклари. -Самарканд 1992;

⁶Бердимуродов А.Э., Энрико М., Пардаев М.Х., Суёнов С. (Узбекистан, Италия) Научный отчет Кафиркалинской экспедиции за 2001 год.-С. 2002; Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х., Энрико М., Бернардо Р., Мантеллини С. (Узбекистан, Италия) Научный отчет Кафиркалинской экспедиции за 2002 год. -С. 2003; Бердимуродов А.Э., Менги Энрико, Самибаев М.К. Археологические раскопки на городище Кафыр-кала // Археологические исследования в Узбекистане 2002г. Вып.3. -Т., 2003; Бердимуродов А.Э., Матбабаев Б.Х., Мантеллини С., Ронделли Б. Археологические раскопки на городище Кафыр-кала // Археологические исследования в Узбекистане 2004-2005 г. Вып. 5, Т., 2006; Бердимуродов А.Э. Мантеллини С., Матбабаев Б. (Узбекистан, Италия) Кафиркала загородная резиденция Самаркандских правителей // Самарканднинг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни. -Тошкент- Самарканд 2007.; Бердимуродов А.Э., Джорджети Д., Мантеллини С. Археологические исследования на городище Кафиркала в 2006-2007 годах //

O'zbek-Italiya qo'shma arxeologik ekspeditsiya tomonidan olib borilgan arxeologik qazishmalar jarayonida yodgorlik tarixiga doir yangi ma'lumotlarni qo'lga kiritish bilan birga yodgorlikning Sug'd siyosiy tarixidagi o'rni yoritish imkonini beruvchi manbalar ham topildi.

Xususan, mustaqillik yillarida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida 500 ga yaqin bullalar aniqlanib, ular Kofirqal'a tarixini ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixini yoritishga ilmiy asos bo'ladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublar. Dissertatsiyada tadqiq etilayotgan masalalarga tarixiy xaqiqat, xolislik nuqtayi – nazardan yondoshilgan. Prezident I.A. Karimov asarlarida tarixiy tadqiqotlar oldiga qo'ygan va'zifalardan kelib chiqib, mavzuni yoritish bo'yicha ilmiy izlanish olib borish ko'zda tutilgan. Ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilish tarixiy - falsafiy uslublardan, ya'ni analiz va sintez, tizimlashish, qiyosiy solishtirma, obektiv holatni taxlil qilish kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi materiallari va ilmiy xulosalardan O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davri, xususan, ilk o'rta asrlar xunarmandchiligi hamda amaliy san'ati tarixini yoritishda, tarix, san'atshunoslik, etnologiya va boshqa fan sohalari ma'ruza matnlari tayyorlashda hamdakasb-xunar kollejlari va o'rta maktablar uchun qo'llanmalar chiqarishda ahamiyatga ega bo'lishi e'tiborga olingan. Shu bilan birga ishning natijalaridan O'zbekiston muzeylari va ko'rgazmalarda qo'yilgan Kofirqal'a topilmalarining xronologik davri va ularning rivojlanish bosqichlariga aniqliklar kiritish hamda ilk o'rta asrlar arxeologiyasi va tarixini o'rganishda metodologik qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi unda

Kofirqal'a yodgorligi bo'yicha amalga oshirilgan qazishma ishlari, ularning ilmiy natijalari yaxlit tizimga solinganligidadir. Shu bilan birga dissertasiyada arxeologik topilmalar- xumdonlar, sopol idishlar, ularning naqshlari, ostadonlar, bullalar chop etilgan ilmiy maqolalar asosida klassifikasiya qilishga harakat qilingan.

Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertasiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati, chizma va suratlar albomi ilovasi hamda qisqartirilgan so'zlarning izohli ro'yxatidan iborat.

I BOB. KOFIRQAL'A YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

1.1. Kofirqal'a yodgorligining joylashuvi va uning topografiyasi

Zarafshon vodiysi Markaziy Osiyoning qadimgi madaniyat markazlaridan hisoblanadi. Bu yerda odamzod ilk paleolit davridan e'tiboran qo'nim topgan. Keyingi tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida odamzot yashab madaniyat uzluksiz rivojlanishda bo'lganligini vohada tadqiq etilgan arxeologik yodgorliklar isbotlab turadi. Bu uzoq o'tmish tarix bilan bog'liq madaniy jarayon vodiya o'ziga xos mahalliy sivilizasiyaning shakllanganligi va rivojlanishiga ilmiy asos beradi.

Zarafshon vodiysi boshqa vodiylardan farqli o'laroq, O'rta Osiyoning markaziy qismida, Turkiston – Oqtov bilan Zarafshon tizmalari orasida joylashgan ko'ndalang vodiya. Uning sharqiy tog'li qismi Tojikiston, g'arbiy tog' etagi va tekislik qismi O'zbekiston hududida joylashgan. Daryoning uzunligi 877 km, havzasining umumiy maydoni 11710 km², shundan tog'li qismi 17710 km², qolgan joylari tog'oldi irmoqlari va tekisliklardan iborat⁷.

Zarafshon o'zining birinchi yirik irmog'i—Fandaryo kelib quyilgan joyigacha Mastchoh deb ataladi. Mastchoh daryosi Zarafshon muzligining quyi chegarasida 2775 m balandlikdan boshlanib, yagona o'zanida baland qoyali va tor tog' darasi bo'ylab g'arbga tomon oqadi. Daryo yuqori qismining kengligi 25 m bo'lib, har kilometr masofada, o'rtacha hisob bilan 7 m pastga tushadi, shuning uchun ham u juda tez va hayqirib, o'ynab oqadi, tosh, qum hamda loyqa kabi oqizindi jinslarni o'zi bilan ko'p miqdorda olib keladi. Mastchoh daryosiga Fandaryoning suvi chap tomondan kelib qo'shiladi va shu joydan boshlab u Zarafshon nomini oladi. Samarkand shahridan 7 km shimoli-sharqda Cho'ponota balandligi yaqinida Zarafshon shimoliy o'zan—Oqdaryo va janubiy o'zan Qoradaryoga ajralib, Miyonqol orolini hosil qiladi. Miyonqol orolining uzunligi 100 km, eni 12—15 km⁸.

⁷Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том III. -Т., 2002. -Б. 675.

⁸Мухаммаджонов А.Р. Қуйи Зарафшон водийсининг сугорилиш тарихи. -Т., 1972. –Б. 25.

Zarafshon daryosidan bir necha kanallar suv olgan bo'lib u voxani suv bilan qadimdan taminlab kelgan. Ularning eng kattalari Darg'om, Bulung'ur, Tuyatortor, Poyariq va Narpay kanallaridir. Zarafshon daryosining chap sohilida joylashgan eng katta kanal Darg'om kanali bo'lib, Ravotxo'ja to'g'onidan boshlanadi. Kanal bir necha shoxobchalarga bo'linib ketgan. Kanal yoqasida bir necha ko'hna shahar va qishlok qo'rg'onlar harobasi joylashgan bo'lib, ularda arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda Darg'om kanali atrofida 68 ta yodgorlik qayd etilgan bo'lib, ular asosan antik va ilk o'rta asrlar yodgorligidir⁹.

Darg'om kanalining paydo bo'lishi haqida ham turli xil ilmiy munozarali fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar kanalning yoshini uning atrofida joylashgan yodgorliklarning davriy sanasini bilan belgilasa, ba'zilar uni tabiiy kanal ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, kanalning paydo bo'lishi haqida Ya. G'ulomov, A.Askarov, A.Muhammadjonov, V.A. Shishkin, Yu. Buryakovlar o'z ilmiy qarashlarini bayon qilganlar¹⁰. Tadqiqotchilarning fikricha, Darg'om kanali suniy raivishda qurilgan. Lekin shu bilan birga uning bunyod etilish jarayonida ayrim joylarida soy va daryolarning o'zanlaridan unumli foydalanilgan.

Darg'om kanali vujudga kelishi ushbu hududda dehqonchilikning rivojlanishiga, yangidan yangi yerlarni o'zlashtirilishiga zamin yaratgan. Ayni vaqtda dehqonchilikning rivojlanishi dastlab qishloqlar keyinchalik esa shaharlarni paydo bo'lishiga imkon yaratgan(1-rasm).

Xuddi shunday shaharlardan biri Kofirqal'a yodgorligi bo'lib, uning paydo bo'lishi va rivojlanishida Darg'om kanalini o'ziga xos o'rni bo'lgan. Kofirqal'a yodgorligi Darg'om kanalining chap qirg'og'ida joylashgan bo'lib, ko'hna Afrosiyob shahridan 12 km janubda, Panjikent harobasidan esa 50 km

⁹Буряков Ю.Ф., Аскарлов К.К. К типологии сельских поселений раннесредневекового Согда(по материалам южных районах Самаркандского оазиса) ИМКУ.Вып. 28.-Самарканд 1997.-С.88

¹⁰Мухаммаджанов А.Р. К истории ирригации в Кушанскую эпоху. -Т.,1975.-С. 271-281; Шишкин В.А. К истории археологического изучения Самарканда и его окрестностей//Афрасиаб. Вып. 1. -Т., 1969. -С.3-67; Бурякова Э.Ф. Поселение Лолазор предшественник города топографии древнего и средневекового Самарканда. -Самарканд. -Т., 1981. -С. 3-22.

g'arbda joylashgan. Yodgorlikning dengiz sathidan balandligi 796 m. Tali Barzu va Kofirqal'a o'rtasidagi masofa 68 km ni tashkil etadi(2-rasm)¹¹.

Kofirqal'aning shahristoni va arki to'g'ri to'rt burchak shaklda bo'lib, ularning tomonlari 360 m ni tashkil etadi(3-rasm). Ark shaharning shimoliy-sharqiy burchagida joylashgan, kvadrat shaklda (76x76m) devorining balandligi 20 m¹²(3A-rasm). Shaharning markaziy qismida uncha katta bo'lmagan maydon bor (35x40). Kofirqal'a arkining asosan minora bilan tashqari tomoni o'rab olingan bo'lib, ular dumoloq va to'rt burchak ko'rinishda. Shimoliy g'arbiy burchakda joylashgan burjning ulchami 9,4x9,6m. Shahar handak bilan o'rab olingan. Xususan, Kofirqal'a arkini shahardan ajratib turish uchun handak qilingan bo'lib, u butun arkni deyarli o'rab olgan. Uning kenligi 27m bo'lib arkning janubiy tomoniga torayib 18 m tashkil etadi. Manashu janubiy g'arbiy burchagida chuqurlik bor. A. Berdimurodovning taxmin kilishicha shu yerda ko'tarilib tushiriladigan handak ustiga qo'yilgan shaharni ark bilan bog'laydigan ko'pri bo'lgan.¹³

Yodgorlikning shimoliy-sharqiy tomoni Darg'om kanali bilan o'rab olingan bo'lib, arkning ustidan shahar yaqqol ko'rinish turadi. Uning shimoliy-janubiy tomonidan Samarqand, tog' oldi tomoni Shahrisabz joylashganligi bois muhim strategik ahamiyatli joyda joylashgan. Minora uch qavatli bo'lib bizgacha faqat uning ikki qavatigina yetib kelgan. Ustgi qismi xom g'ishtdan gumbazsimon qilib qurilgan. Arkning minoralari o'zoro koridor bilan bog'langan bo'lib, bu koridorlar urush paytida mustahkam himoya uchun qo'l kelgan. Koridorning eni 1,5m tashkil etadi.¹⁴

¹¹Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х., Энрико М., Бернардо Р., Мантеллини С. (Узбекистан, Италия) Научный отчет Кафир-калинской экспедиции за 2002 год. -С., 2003. -С. 6

¹²Бердимуродов А.Э., Мантеллини С., Матбабаев Б. (Узбекистан, Италия) Кафиркальа загородная резиденция Самаркандских правителей // Самарканднинг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўни. -Тошкент- Самарканд. Фан. 2007. -Б. 73-77.

¹³Бердимуродов А.Э., Энрико М., Пардаев М.Х., Суёнов С. (Узбекистан, Италия) Научный отчет Кафир-калинской экспедиции за 2001 год. -С., 2002. -С. 5-6.

¹⁴Бердимуродов А.Э., Аскарлов К.К. Кофиркальанинг муҳофаа усуллари ва тармоклари // Ўзбекистон-қадимда ва ўрта асрларда. -С., 1992. -Б. 57-58.

1.2. Yodgorlikda Respublikamiz mustaqilligigacha bo'lgan davrda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va natijalar.

Kofirqal'a va uning atrofidagi Quldortepa, Talli-Barzu harobalari arxeologik o'rganish ishlari Respublika xalqlari tarixi madaniyati muzeyi xodimlari tomonidan 1935-1936 yillardan boshlab yuborilgan. Xususan, 1936-yildan G.V. Grigoryev va I.A. Suxarevlar Darg'om yoqasida joylashgan bir qancha tepaliklarda arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirganlar¹⁵.

Talli-Barzu yodgorligida arxeologik tadqiqotlar 1936-1938 yillarda Sharq xalqlari madaniyati tarixi muzeyi xodimi I.A. Suxarev tomonidan, 1939-yildan boshlab esa Davlat Ermitaji Moddiy madaniyat tarixi muzeyi tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiya xodimlari tomonidan davom ettirilgan¹⁶. A.Yu. Yakubovskiy rahbarligidagi ushbu ekspeditsiya nafaqat Darg'om kanali yoqasida balki, butun Zarafshon vohasining keng qamrovli hududlarida tadqiqot ishlarini olib bordi.

Talli Barzu yodgorligi Samarqand shahridan chamasini 6 km janub tomonda joylashgan. Uning umumiy maydoni 5 ga bo'lib, to'rtburchak shaklda. Atrofi ko'plab shinakli va burjlari bo'lgan qalin devor bilan o'rab olingan. Shaharning markazida ko'handiz (balandligi 18 m) joylashgan. V-VI asrlarda bu yerda qasrli mustahkam qo'rg'on qurilgan¹⁷. Aholi deqqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Talli Barzudan qizil rangga bo'yalgan qadahlar, ikki boshli qo'chqor ko'rinishidagi kabob qo'rasi, naqshinkor sopol idishlar, haykallar va yozuv namunalari topilgan. Talli Barzuda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida G.V. Grigoryev 6 ta madaniy qatlam borligi va bu yerda hayot tarzi mil.avv. VI-V asrdan milodiy VIII asrgacha davom etganligini o'z tadqiqotlarida keltirib o'tgan¹⁸.

¹⁵Шишкин В.А. К истории археологического изучения Самарканда и его окрестностей//Афрасиаб. Вып.1. -Т., 1969. -С. 105-107.

¹⁶Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.-Т.,2004.- Б. 241.

¹⁷Григорьев Г.В.Поселения древнего Согда.(По данным исследования городищ Самаркандского района) // КСИИМК., № 6. -М., 1940. - С. 24-25.

¹⁸Григорьев Г.В. Городище Тали-Барзу.ТОВЭИ.1940.-С, 87-102.

Arablar tomonidan Sug'dni bosib olinishi jarayonida Panjikent, Chelak bilan bir qatorda Talli-Barzushahari vayron bo'lgan va u joydagi hayot tarzi butunlay izdan chiqqanligi tadqiqotchi tomonidan qayd etilgan¹⁹. Kofirqal'a yodgorligi XX asrning 20-yillarida arxeologlarning diqqatini o'ziga jalb qilgan. Xususan, M.Ye. Masson tomonidan Amir Temurning Davlatobod bog'ini Darg'om kanalining chap qirg'og'idan izlash jarayonida tepalikni ko'zdan kechirgan. U yodgorlikning davriy sanasini temuriylar davrigacha deya ta'kidladi²⁰.

Talli-Barzuda olib borilgan arxeologik tadqiqot davomida Kofirqal'ada ham arxeologik qazishma ishlarini olib borishga imkon yaratdi. Kofirkal'adagi qazishmalarni dastlab 1938-yilda I.A. Suxarev va H. Zabelinalar boshlab berishdi. Ularning tadqiqotlari davomida kulolchilik kvartallari ochib o'rganilgan. Xususan, tadqiqotchilar tomonidan kulolchilik pechi ochilgan bo'lib, pech yumaloq shaklda ikki yarusli ekanligi malum bo'ldi²¹. Pechni yonidan ko'plab sopol siniqlari olingan. Ular orasida butunlarini ham uchratish mumkin. Ularga tushirilgan muhrlar G.V. Grigoryev tomonidan tadqiq etilgan. Tadqiqotchi sopoldagi tasvirga qarab, bunday tasvirlar nafaqat sug'd, balki, uning keng hududiga tarqalganligini ko'rsatib o'tishga harakat qilgan²². Kofirqal'a yodgorligining janubiy g'arbiy burchagida uncha katta bo'lmagan tepaliklar joylashgan bo'lib, 1938 yilning o'zida I.A.Suxarev tomonidan ushbu tepalikda arxeologik qazishmalar amalga oshirildi. Natijada, bir qancha nauslar ochib o'rganildi. Ushbu nauslar kvadrat shaklida bo'lib, o'lchami turli xil, devori yupqa, paxsa va to'g'ri burchak shaklidagi g'ishtdan qilingan²³. Talli Barzuda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida uning madaniy qatlamlari G.V.

¹⁹Григорьев Г.В. Тали-Барзу как памятник домусульманского Согда //КСИИМК.,XIII. –М-Л.,1946.-С. 153.

²⁰Массон М.Е. О местонахождении сада Тимура Давлат-абат//Известия Средазкомстари. Вып.2. –Т.,1928. –С. 43-48.

²¹Беленицкий А.М., Бентович И.Б.,БольшаковО.Г.Средневековый город Средней Азии.-Ленинград.1973. –С. 49-50.

²²Григорьев Г.В.К вопросу о художественным ремесле домусульманского Согда // КСИИМК., № 12. –М-Л., 1946. -С. 94-103.

²³Сухарев И.А. Отчет по раскопкам зороастрийских наусов городища Кафыркала // Архив ГМИКИУ, Д. 568. -Самарканд, 1938. -С. 6-10.

Grigoryev tomonidan 6 ta davrga ajratilgan edi. Kofirqal'adagi dastali krujkalar, tavoqlar, taqinchoqlar, ingichka bo'yli ko'zalarni sanasini TB V yani V-VII asr bilan belgiladi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha bu turdagi sopol idishlar Sosoniylar kumushiga taqlid qilgan holda ishlab chiqilgan. Haykalchalar esa turkiy qiyofada bo'lgan²⁴. Yodgorlikni arxeologik tadqiq etish ishlari 1941-yilgacha davom ettirildi. Ikkinchi jahon urushi arafasida tadqiqot ishlar to'xtab qoldi. Olib borilgan tadqiqotlarda kulolchilik pechi va uning atrofidagi sopollaridan olingan nauslar ochilgan bo'lsa ham bu yodgorlik haqida to'laroq ma'lumot bermaydi.

Yodgorlikda arxeologik tadqiqotlar XX asrning 50-yillaridan qayta jonlanadi. 1956-1957 yillarda tadqiqot ishini Tarix instituti va O'z R FA SSSR arxeologiyasi O.V. Obelchenko rahbarligida Kofirqal'ada arxeologik tadqiqotlar davom ettirildi. Bu tadqiqotlarda G.V. Shishkina faol qatnashdi²⁵. Tadqiqotlar shaharning 170 m janubiy-g'arbida joylashgan shaklda kvadrat shakldagi tomonlari 36 m.lik tepalikda olib borildi. Tepalikning balandligi 7 m bo'lib, tadqiqotlar davomida bir-biriga ulanib ketgan to'g'ri to'rt burchakli xonalari ochib o'rganilgan. Xonalar paxsa va xom g'ishtdan qilingan. Yodgorlikda olib borilgan tadqiqotlar davomida uning ichki xonalari devorlarida tor teshiklar qoldiqlari tadqiqotchi tomonidan qayt etildi. Bu teshiklar reja asosida devorning poli pol ostiga joylashtirilgan, xonalarning ichki qismida jami 46 ta shunday teshiklarni uchratish mumkin. Tadqiqotchi ushbu teshiklar xonani isitishda va yozda shamollatish tizimini bajarganini etirof etgan(4:1,2-rasm). Qazishmalar davomida sopol buyumlari, xaykalchalar va temir kuluch topilgan, ba'zan ostadonlarni ham uchratish mumkin. Tadqiqotchi tomonidan ushbu qishloq qo'rg'oni to'laligicha ochib o'rganilgan bo'lib, undan chiqqan sopollarning

²⁴Григорьев Г. В.Городище Тали-Барзу.-1940. -С. 87-102.

²⁵Шишкин В.А.Узбекистанская археологическая экспедиция АН Уз ССР. (Полевые работы 1956-1959гг.)/ИМКУ. Вып. 2. -Т., 1961. -С-35-36.

sanasini VI-VII asr bilan belgilagan hatto yodgorlikning ustki qatlamlariga XI-XII asr sopollari tushib qolganligini ta'kidlaydi. G.V. Shishkinaning ta'kidlashicha, markaziy xonalar dehqonning qo'rg'oni bo'lgan uning atrofida yordamchi xonalari joylashgan bo'lib, aholi tashlab ketganidan keyin bu yerda ostadonlar saqlangan²⁶. Keyinchalik, uzok yillar davomida yodgorlikda tadqiqotlar olib borilmagan bo'lsa ham G.V. Shishkinaning maqolasi ilmiy munozaraga sabab bo'ldi.

Xususan, V. A. Nil'sin 1965-yilda chop etgan "K voprosu o naznachenii sogdiyskogo zdaniya okolo Kafyr-kala pod Samarkandom" maqolasida Kofirqal'a dahma bo'lib xizmat qilganligini ta'kidlaydi (5-rasm). Undan tashkari, arxitektura tuzilishi Aultepaga nisbatan qiyoslash samara bermasligini chunki, yodgorlikning birinchi qavati saqlanib qolmaganini ta'kidlaydi.²⁷ Kofirqal'a markaziy xonalari sig'inish bilan bog'laydi, ya'ni ossuariy saqlanadigan joy bo'lgan, odamlar vafot etganlaridan keyin ularning suyaklari tozalanib, ostadonlarga solinib nauslarda saqlagan, xonalardagi maxsus teshiklar esa shamollatish uchun xizmat qilganligini ta'kidlaydi. Islomning kirib kelishi bilan tashlab ketilgan, degan xulosani beradi. Kofirqal'adan topilgan kalitni diniy qadriyat bilan bog'lashga harakat qiladi. Biyanayman ostadonlarda kohinlarni shunga o'xshash kalitni ushlab turganini keltirib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, bir qancha qayta qurilishlarda, ularning ichki tuzilishini o'zgartirgan bo'lsa ham lekin diniy qadriyatlar o'zgarmagan holda arablar bosqiniga qadar saqlanib qolganligini ta'kidlaydi.²⁸.

Yu. Yakubov ham Kofirkal'ada G.V. Shishkina arxeologik tadqiqotlari arxetekturasiga va uning vazifasi haqida o'zining qisman xulosasini berib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, dahma bugungi kunda Eron va Hindistonda hamma tomoni

²⁶Шишкина Г.В. Раннесредневековая сельская усадьба под Самаркандом //ИМКУ. Вып. 2.-Т.1961. –С. 192-222.

²⁷Нильсен В.А.К вопросу о назначении согдийского здания около Кафыркалы под Самаркандом //ИМКУ. Вып. 6. -Т., 1965. -С. 116-123;Нильсен В.А.Становление феодальной архитектуры.-Т.,1966г.

²⁸Нильсен В.А. К вопросу о назначении согдийского здания около Кафыркалы под Самаркандом // ИМКУ. Вып. 6. -Т., 1965. -С. 116-123

yopik bino bo'lib, suyak tozalangandan keyin yuqoridan tashlanadi. Markaziy Osiyo zardusht odatiga ko'ra, suyak toza bo'lganidan keyin ularni ostadonlarga solib, yaxlit ichkarisi ko'p bo'lmagan xonalarga ya'ni, nauslarga qo'yiladi. Shunday ekan u daxma emas balki katta dehqonning qo'rg'oni bo'lgan. Bu yerdagi xonalardagi va undagi teshiklar uzum quritish uchun xizmat qilgan dehqon uzumning soyakisini yetishtirgan. Soyaki uzumlarni bugungi kunda ham Markaziy Osiyoda keng qo'llaniladi deb ta'kidlaydi va ikkita qurilish davriga bo'ladi. Birinchi davrda markaziy xona qurilgan. Ikkinchi qurilish davrida atrofidagi koridor va tutashib ketgan xonalar qurilganligini ta'kidlaydi va uning birinchi qavati anologik jihatdan Filmandarga o'xshashligini ta'kidlaydi. Birinchi qavatda ishlab chiqarishda ikkinchisida esa yashashda foydalanganligini ko'rsatib o'tadi²⁹. Setalak 1 ibodatxonasida tadqiqot ishlarini olib borgan R.X. Sulaymonov Kofirqal'a atrofidagi inshoot “ semantikasi va o'ziga xos konsruksiyasiga ko'ra” Buxoro va Toshkent vohasidagi aniqlangan diniy inshootlarga o'xshash degan fikrni bildiradi³⁰.

B.I. Marshak ham G.V. Shishkina tomonidan chop etilgan maqolaga o'z fikrini bildirib o'tgan. Uning yozishicha, yodgorlikning sopollari qatlamlarga yaxshi ajratilmaganligini uchun bir necha qatlam sopollari bitta qurilish davri bilan belgilangan, lekin materiallarning tahlili uning uchta qurilish davriga oid bo'lganligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga u G.V. Shishkinaning xulosasini tasdiqlagan holda Kofirqal'aniko'shk vazifasini bajargan degan fikrni bildiradi³¹. S.K.Kabanov ham G.V. Shishkinaning fikrini qo'llagan holda bino bir vaqtning o'zida qurilgani ta'kidlaydi, lekin undan farqli ravishda devordagi teshiklarni

²⁹Якубов Ю. Раннесредневековые сельские поселения горного Согда. –Душанбе, 1988. –С. 57-58

³⁰Сулеймонов Р.Х. Об истоках раннесредневековой культуры древней Бухарского оазиса // УСА вып. 4, -Л.,1979.-С. 19.

³¹Маршак Б.И. Керамика и даты слоев средневековых памятников Средней Азии // СА.№ 2. -М., 1971. -С. 207-208.

yoritish tizimi hamda xavo almashtirish vazifasini bajargan degan xulosaga keladi³².

G. L. Semenovning 1996–yilda nashr etilgan “Sogdiyskaya fortifikatsiya V–VIII vv” nomli asarida B.I. Marshakning fikrini qo’llagan holda inshoot qurilishini ikkita qurilish davriga bo’ladi. Birinchi qurilish davrida binoning plani Filmandir qasriga o’xshash bo’lganligi, ikkinchi qurilish davrida markaziy xonaning atrofini karidor bilan ajratib turuvchi bir qancha xonalar bo’lganligini qayd etadi³³. F. Grene G.A. Pugachenkovalar³⁴ G.V. Shishkinaning ilmiy xulosalarini qo’llagan holda “qishloq makoni” deya ta’kidlaydi³⁵.

1.3. Mustaqillik yillarida Kofirqal’a yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va ularning natijalari.

Mamlakatimiz mustaqilligi qo’lga kiritilgandan keyin yodgorlikda tadqiqotlar keng miqyosda olib borildi. Arxeologik qazishmalar olib borish uchun yodgorlikning ark qismi tanlandi. Xususan, A.E. Berdimurodov boshchiligidagi 1990-1994 yillarda Kofirqal’a arkini shimoli-g’arbiy qismida arxeologik tadqiqot ishlari olib borildi. Qazishmalar natijasida minoraning ichidagi devori bo’ylab uchta xonalar ochib o’rganildi. Xonalar shimoliy g’arb tomonga qarab qurilganligi dastlabki vaqtda ularning devorining qalinligi 1 metrni tashkil etgan.

Keyinchalik bir necha marta qayta tuzatishlar qilish natijasida ular kengayib borganligi aniqlandi³⁶. Keyingi yillarda yodgorlikda olib borilgan tadqiqotlar keng qamrovli bo’lib, albatta bu o’z samarasini berdi. Xususan, arxeologik tadqiqotlar olib borish, nafaqat, o’zbek olimlari hamda chet el olimlarida ham qiziqish uyg’otdi. 2001-yilning sentyabr-oktyabr oylarida

³²Кабанов С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III -V вв. -Т., 1981. -С.127.

³³Семенов Г.Л. Согдийская фортификация. -СПб., 1996.-С. 168.

³⁴Пугачскова Г.А. К интерпретации здания близ Кафиркалы.//Общественные науки в Узбекистане. -Т.,2002.№2. -С. 90.

³⁵Grene F. Les pratiques funéraires dans l’Asie Centrale sédentaire de la conquête grecque à l’islamisation. -Paris, 1984. -P. 167—169.

³⁶Бердимуродов А.Э., Аскарлов К.К. Кофирклянинг муҳофаа усуллари ва тармоклари. -С. 1992.-Б. 57-58.

Kofirqal'ada o'zbek va Italiya halqaro qo'shma ekspeditsiyasining olib borgan arxeologik tadqiqotlari o'z samarasini berdi. Ekspeditsiya A.E. Berdimurodov rahbarligida tashkil etilgan bo'lib, ekspeditsiya tarkibida K. Raximov, Italiya olimlaridan Simona Mantelline, Dario Djorjeti Enriko Mengilar qatnashdi. Tadqiqotlar ark darvozasining kirish qismida 10x12m maydonda olib borildi. Arxeologik qazishmalar davomida ko'plab sopol buyumlari va eng asosiysi 300 yaqin bullalar qo'lga kiritildi. Bullalar loydan qo'lda yasalgan bo'lib, unga hukmdor yoki biror bir boy amaldorning tasviri tushirilgan³⁷. A.E. Berdimurodovning ta'kidlashicha, yodgorlik tarixiy manbalarda tilga olingan xukumdorning qarorgoxi bo'lganligini, ayniksa bullarning topilishi buni tasdiqlashini e'tirof etadi³⁸. Xalqaro ekspeditsiya qo'shma ekspeditsiya arxeologik tadqiqotlarini 2002-yilda ham davom ettirdi. Arxeologik tadqiqotlar ark darvozasining kirish qismidan 2001-yilgi joyni kengaytirish bilan boshladi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda o'sha joydan 114 ta bulla topilgan. Ularning jami 414 ta ni tashkil etdi. Bunga o'xshash muhrlar Niso va Mug' Panjiketdan ham topilgan edi. Ularga qaraganda, Kofirqal'a bullalari ko'pchilikni tashkil etadi³⁹.

2005 yilda A. Berdimurodov rahbarligida O'zbek- Italiya qo'shma ekspeditsiyasi o'z ishini yodgorlikning ark qismida davom ettirdi. Arxeologik tadqiqotlar 2003-yilda olib borilgan joyni kengaytirishdan boshladilar. Tadqiqotlar davomida sopollar, toshdan, temirdan, bronzadan va yog'ochdan qilingan buyumlar, hamda eng asosiysi tanga va 84 bullalar qo'lga kiritildi. Qazishmalardan ma'lum bo'lishicha, yodgorlik qasri ayvonli qilib qurilgan bo'lib, ushbu ayvonlar ustunlarining tag kursi saqlanib qolingan. Yodgorlikning arxetekturasi Jartepa

³⁷Бердимуродов А.Э., Менги Энрико, Самибаев М.К. Археологические раскопки на городище Кафыр-кала // Археологические исследования в Узбекистане 2002 г. Вып. 3. -Т., 2003. -С.45-48.

³⁸Бердимуродов А.Э., Менги Энрико, Научный отчет Кафиркалинской экспедиции за 2001г.-Самарканд 2002г-С.38.

³⁹Бердимуродов А.Э., Менги Энрико, Самибаев М.К. Археологические раскопки на городище Кафыр-кала // Археологические исследования в Узбекистане 2002 г. Вып. 3. -Т., 2003. -С., 45-48.

ibodatxonasini eslatishi uning markaziy xonalaridan shu o'lchamdagi tagkursilar borligi tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlandi va tadqiqotlar davomida ikkita qurilish davri aniqlandi⁴⁰.

2006-2007 yillardagi arxeologik qazuv ishlari yodgorlik arkining sharqiy va g'arbiy qismida olib borildi. Qazish ishlari jarayonida bir-biriga ulanib ketgan to'g'ri to'rtburchakli bir necha xonalar ochib o'rganildi (6-rasm). Tadqiqotlar davomida bu xonalardan ko'p sonli sopol buyumlar: xum, idish va boshqalar bo'lib, sifatli va turli xil soppalar topildi. Soppalarning ko'pchiligi Panjiket, Isoboytepa va Ustrushona soppalariga yaqin ekanligi xulosa qilindi va yodgorlik 4 ta qurilish davriga bo'lindi⁴¹.

Yodgorlikni arxeologik tadqiq etish yildan yilga kengayib bordi. Xususan, 2013- yilning may va iyun oylarida A.E. Berdimurodov boshchiligidagi o'zbek va italiya olimlari hamkorlikdagi ekspeditsiya o'z faoliyatini davom ettirdi. Topilmalardan bulla, sopol buyumlari, siniqlari xayvonlar xaykallari, mis tangalar, temir buyumlari topildi tadqiqotlar hozirgacha davom etib kelmaqda.

Mustaqillik yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida shahar tarixini yoritishda xizmat qiladigan boy manba to'plandi. Ma'lum bo'lishicha, shahar arablar bosqini arafasida gullab yashnagan. Arablarga qarshi mardonavor jang qilganligi hovlida saqlanib qolgan kul qatlamlaridan ma'lum.

⁴⁰Бердимуратов А.Э., Матбабаев Б.Х., Мантеллини С., Ронделли Б. Археологические раскопки на городище Кафыр-кала // Археологические исследования в Узбекистане 2004-2005 г. Вып. 5. –Т., 2006. –С. 73-79.

⁴¹Бердимуратов А.Э., Джоржети Д., Мантеллини С. Археологические исследования на городище Кафиркала в 2006-2007 годах // Археологические исследования в Узбекистане 2006-2007 г. Вып. 6. –Т., 2009. –С. 72.

II BOB. KOFIRQAL'A YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR MOBAYNIDA KULOLCHILIK SOHASIDA QO'LGA KIRITILGAN MUHIM NATIJALAR

2.1 Kofirqal'a xumdonlari

Qofirqala yodgorligida xumdonlar 1938 yilda I.A. Suxarev tomonidan olib borilgan qazishmalar chog'ida aniqlangan bo'lib, xumdonlar VII-VIII asrga taaluqli hisoblanadi. Aniqlangan xumdonlar ikki kamerali -olovxona va pishirish xonasidan iborat(8:1-rasm). Olovxona yerdan o'ra kilib kovlab olingan, diametri 2,6 m, balandligi 2,1m. ni tashkil etadi.Uning markaziy qismida loydan qilingan ustun joylashgan, ya'ni, uni ostidan ushlab turgan. Olovxona ostidagi qatlamda aylana shakldagi ikki qator issiq xavo yo'llari o'tqazilgan bo'lib, ularning ayrimlarida loydan yasalgan tiqinlar o'rnatilgan. Ushbu tiqinlar xavo temperaturasini nazorat qilish uchun ishlatilgan⁴².

Sug'd hududida qadimgi, ya'ni bronza davriga oid ilk sopol pishirish xumdonlari Zamonbobo yodgorligida qayd qilingan bo'lib, u ikki yarusli ko'rinishda bo'lganligi tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlab o'tilgan⁴³.

A. Isakov tomonidan Sarazm yodgorligidan ham xumdon ochib o'rganilgan va ular ikki kamerali bo'lganligi, hamda davriy jihatidan ilk bronza davri oid ekanligi aniqlangan⁴⁴

Bundan tashqari, eramizdan avvalgi I-ming yilliklarni o'rtalariga tegishli ikki yarusli xumdonlar I. D. Ivaniskiy tomonidan Sattepa manzilgohidan ochib o'rganilgan⁴⁵. Bunga o'xshash ikki kamerali pechlar antik davrining oxirlarida Marv vohasidan ham topib o'rganilgan. Xususan, Gyurkala shaharchasidan dumaloq shaklda ikki kamerali yerni kovlab olgan olov xonasi va yuqorida

⁴²Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. Ответ. ред. Брыкина Г.А.. -М., 1999. -С. 68.

⁴³Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскаров А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зерафшана. - Ташкент, 'Фан". 1966. -С. 149-150.

⁴⁴Исаков А.Саразм(квопросу становленияранееземледельской культуры Зерафшанской долины)(Раскопке 1977-1983 гг.) - Душанбе:Дониш, 1991. -С. 156.

⁴⁵Иваницкий И.Д. Сарате-2-поселение керамистов середины Iтыс. до н. э. под Самаркандом// ИМКУ. Вып. 26. -Т., 1992. -С. 23-27.

sopollar pishirish kameralaridan iborat⁴⁶.

Qashqadaryo hududida olib borilgan keng ko'lamdagi arxeologik tadqiqotlar mobaynida ikki yarusli pechlar ochib o'rganilgan. Xususan, Yerqo'rg'on yodgorligining antik va ilk o'rta asrlarga oid qatlamlaridan ikki yarusli xumdonlar qayd qilingan. Qashqadaryo vohasining ilk o'rta asrlarga oid Isaboytepa yodgorligida ham VII-VIII asrlarga tegishli ikki qavatli xumdon kuzatiladi⁴⁷.

Undan tashqari, V-VI asrga oid Mundontepadan ikki yarusli pech ochib o'rganilgan bo'lib, u dumaloq shaklda, lekin uning olovxonasi tor uzun koridorli bo'lgan⁴⁸.

Ilk o'rta asrlarga oid xumdon Jomboy tumanida ham keng ko'lamda o'rganilgan. Jomboy arxeologik guruhi O'zR FA Arxeologiya institutining katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi K. A. Rahimov boshchiligidagi arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirdi. Xumdonning o'txonasi va uning tomi to'liq saqlangan. U shaklan ikki yarusli bo'lib, arxeologik jihatdan to'liq saqlangan (7:2-rasm). Uning o'tin solishga mo'ljallangan yo'lakchasi va o'txonaning uch qatorli xom g'ishtdan terilgan tom qoldig'i to'liq saqlangan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, avval materik qatlamidan xumdonning o'txonasi qazilgan, so'ngra o'txona poli sathidan 2 m balandlikdan boshlab taxminan 40x20x8-9 sm o'lchamdagi xom g'ishtlar yordamida yopilgan va undan xil novlari hosil qilingan. O'tin solish yo'lakchalarining va o'txonaning og'zi xom g'ishtlar yordamida, ularni ichkariga toraytirib terish orqali ustki qismi yopilgan. O'txonaning o'rta qismida hych qanday tirgak ustun qoldig'i uchramaydi. O'txona aylana shaklga ega bo'lib, uning diametri 1,40-1,50 m., chuqurligi 2 m. ni tashkil qiladi (7:2-rasm). O'txona devorlari 5-6 sm. qalinlikda bo'lib, olov

⁴⁶Ахраров И.А., Усманова З.И. Керамическая печь позднеантичного времени //ТЮТАКЭ. Вып. XVII. -Т., 1980.- С. 155

⁴⁷Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. -Ташкент, 2000. -С. 126.

⁴⁸Мережин Л.П. К характеристике керамических печей периода рабовладения и раннего средневековья в Мервском оазисе // ТЮТАКЭ. Вып. XI.-А., 1962. -С. 12-38.

ta'sirida kuchli kuygan. Bundan ko'rinib turibdiki, undan uzoq vaqt mobaynida foydalanilgan. Xumdonning o'tin solish yo'lakchalari bitta bo'lib, u xumdonning g'arbiy tomonida joylashgan. Yo'lakchaning uzunligi 1,50 m., kengligi 0,60-0,85 m., saqlanish chuqurligi 40-65 metrgacha yetadi. Yo'lakcha o'txonaga yaqinlashgan sari chuqurlashib boradi, ya'ni gorizontaal qilib qurilgan. Uning poli va devorlari olovdan qizarib kuygan.

Xumdonning pishirish kamerasiga issiqlik o'tkazish xil novlari simmetrik ravishda joylashgan bo'lib, ulardan 8 tasi to'liq saqlangan. Uning qolgan beshta xil novlari esa o'txonaning tomida vertikal holatda g'isht qoplamasini kesib tushgan. Xil novlarning xumdon o'txonasining pol sathidan 2 m. balandlikda joylashgan bo'lib, ular simmetrik ravishda joylashgan xil novlarini uzunligi 0,70-0,95 m, kengligi esa 0,07-0,10 m. gacha yetadi. Ularning saqlanish chuqurligi 0,10-0,40 m.ni tashkil qiladi. Ular xumdon o'txonasiga yaqinlashgan sari chuqurlashib boradi, ya'ni gorizontaal qilib qurilgan. Qolgan beshtasi o'txona tomida yasalgan bo'lib, ularning ko'rinishi aylanava cho'zinchoq shakllarga ega. Ushbu xil novlarining o'lchami 10-10 sm;10-12 sm;10-8sm dan iborat.

Xumdon o'txonasining og'zi pol sathidan 2 m balandlikdan so'ng uch qator xom g'ishtlarni (o'lchamlari 40x20x8-9 sm) ichkariga toraytirib terib yopilgan. Xumdonning pishirish kamerasi saqlanmagan bo'lsa ham, o'txona va hil yo'lakchalarining o'lchamlariga ko'ra, uning diametri taxminan 4 m. ga yaqin bo'lgan, deb faraz qilish mumkin. Xumdon o'txonasining qirqimi bo'yicha madaniy qatlamlar quyidagicha: o'txona poli ustida 0,20-0,25 m. qalinlikda oqish rangli kul qatlami borligi kuzatiladi. Mazkur qatlam orasidan bir dona kuygan xom g'isht parchasi va ilk o'rta asrlarga oid sopol parchasi topildi. Kul qatlami ustida 0,50-0,65 m. qalinlikda o'rtacha zichlikdagi kul aralash tuproq qatlam mavjud bo'lib, uning tarkibida xumdon devorining kuygan bo'laklari, xom g'isht bo'lagi, ko'mir dog'lari, ko'za va xurmacha gardishi bo'lagi va tashqi

tomoniga to'q jigar rangli angob tomizdirilgan idish bo'lagi uchraydi. Mazkur qatlam ustidan 0,65-0,75 m. qalinlikdagi och jigar rangli yumshoq qatlam bilan yopilgan. Bu qatlamda kuygan va kuymagan xom g'isht parchasi va tashqi tomoniga qizg'ish jigar rangli angob tomizilgan idish parchalari qayd qilindi. Xumdon o'tin solish yo'lakchasi yumshoq tuproq qatlam bilan to'ldirilgan bo'lib, uning tarkibida xurmacha va ko'za idishning parchalari qayd qilingan. Ushbu xumdon devorlarining o'ta kuyganligini inobatga oladigan bo'lsak, undan uzoq vaqtlar davomida foydalanilganligidan yoki bo'lmasa, yuqori issiqlik temperaturasi bo'lganligidan guvohlik beradi. Xumdon o'txonasi va o'tin solish yo'lakchasida qayd qilingan qatlamlar orasidan kulollik charhida yasalgan sopol bo'laklari topilgan. Ular ilk o'rta asrlarga oid.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, O'rta Osiyoda VI-VIII asrlarda O'rta Osiyo hududida o'txonasi pishirish kamerasi ostida joylashgan ikki yarusli aylana shakldagi xumdonlar yoki o'txona va pishirish kamerasi alohida bo'lgan xumdonlar keng tarqalgan.

Jomboy tumani hududidan ochib o'rganilgan xumdonning ilmiy tahlilidan kelib chiqqan holda, quyidagilarni xulosa qilib aytish mumkin:

Birinchidan, xumdonning boshqa yodgorliklardan o'rganilgan xumdonlar bilan qiyosiy tahlilidan kelib chiqqan holda, shuni xulosa qilish mumkinki, Sug'd hududida ilk bronza davrida paydo bo'lgan ikki yarusli xumdonlar ilk o'rta asrlarda ham davom etganligidan guvohlik beradi;

Ikkinchidan, Sug'dning ilk o'rta asrlarda markazlashgan kulollik hunarmandchiligi bilan birga har bir qishloq manzilgohlari ham o'zining xumdonlariga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, Jomboy tumanida o'rganilgan xumdonning umumiy maydoni kichik ekanligini hisobga olib aytadigan bo'lsak, u qishloq manzilgohi uchun xizmat qilganligidan dalolat beradi.

To'rtinchidan, yakka tartibda, ya'ni qishloq manzilgohlarida ishlab chiqarilgan kulolchilik mahsulotlari markazlashgan ustaxonalarda tayyorlangan kulollik buyumlaridan sifati bilan bir-biridan farq qilmasligi mumkin.

Farg'ona vohasi ilk o'rta asrlar yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida ko'plab sopol idishlar va har xil materiallarni qo'lga kiritish bilan bir qatorda ilk o'rta asrlar xumdonlari ochib o'rganilgan. Xususan, Balandtepadan xumdon ochib o'rganilgan bo'lib, bu xumdon ikki kamerali, otxona va pishirish kamerasidan iborat(8:2). O'txona yerni kovlab dumaloq shaklda, diametri 210 sm balandligi 140 sm ni tashkil etadi. O'txonaning og'iz qismi 170sm bo'lib, uzunligi 60-70 sm kenglikda joylashgan. O'txonaning o'rtasida tayanch ustun bo'lib, o'lchami yuqori qismida eni 31-35 sm, uzunligi 98 sm ni tashkil etadi. Pechning devoriga shlak yopishib qolganligini ko'rishimiz mumkin⁴⁹.

Kofirqal'a hamda yurtimizning boshqa hududlarida aniqlangan ilk o'rta asrlarga oid xumdonlar o'zining tuzilish jihatidan deyarli bir-biriga yaqin bo'lsada ularning o'ziga xos lokal xususiyatlari ham mavjud bo'lgan. Xususan, bu o'ziga xos xususiyatlar yodgorlikning mavqeyi yani, shahar yoki qishloq makonlari bo'linishiga qarab farq qilgan.

2.2 Sopol idishlar tipologiyasi

Sopol buyumlar gardish qismi quyidagi shakllarga ega bo'ladi:

- 1. Gardish qismining chetlari bo'rttirilgan.**
- 2. Bo'rttirilgan, valiksimon.**
- 3. Gardishining cheti ichki tomonga qayrilgan.**
- 4. Gardishining cheti tashqi tomon qayrilgan.**
- 5. Qatlangan ko'rinishda.**
- 6. G-simon ko'rinishda**

⁴⁹ Матбабаев Б.Х. К истории культуры Ферганы в эпоху раннего средневековья. -Т.,2009. -С.19.

Yopiq turdagi idishlar qorni devori qismi quyidagi shakllarga bo'linadi:

- 1. Sharsimon shaklda, qorni devorining yuqori va pastki kislmlari deyarli bir xilda bo'ladi.**
- 2. Noksimon ko'rinishda, qorni devori pastga tomon torayib boruvchi.**
- 3. Tomchisimon, qorni devori pastga tomon kengayib boradi.**
- 4. Silindrsimon, ko'pchilik hollarda devor qismi tik holatda bo'ladi.**

Ochiq turdagi idishlar devori qismi quyidagi shakllarga bo'linadi:

- 1. Yarimsharsimon.**
- 2. Konussimon.**
- 3. Yuqori tomon kengayib boruvchi, yuqorisi kesilgan tomchisimon ko'rinishdagi idishlar.**
- 4. Silindrsimon.**
- 5. Qo'ng'iroqsimon.**

Sug'dning ilk o'rta asrlar sopollari yaxshi o'rganilgan. Xususan, Panjikent sopollari I.B. Bentovich⁵⁰, B.I. Marshaklar⁵¹ tomonidan mukammal o'rganilgan bo'lsa, Markaziy Sug'd ya'ni Samarqand vohasi ilk o'rta asrlar sopollari L.V. Sokolovskoya⁵², T.I. Lebedova⁵³, A.E. Berdimurodovlar⁵⁴ tomonidan o'rganganlar. Lekin hali Sug'dning ba'zi ilk o'rta asr sopollari unchalik darajada o'rganilgan deb bo'lmaydi. Xususan, Kofirkal'a sopollari hali to'laligicha ilmiy muomilaga kiritilgan emas. Ko'p yillar davomida Kofirqal'ada olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, sopollar boshqa materiallarga qaraganda ko'prog'ini tashkil etadi.

Yodgorlik sopollarining o'ziga xosligi shundaki, bu yerda kumush idishlarga taqlid qilgan holda slyudadan keng foydalanganligidir.(8-rasm)

⁵⁰Бентович И.Б. Керамика Пенжикента//МИА.№37. -М-Л.,1953. -С. 133-145.

⁵¹Маршак Б.И. Влияние торевтики на согдийскую керамику VII-VIII вв. // ТГЭ, т. 5, -С.177-201.

⁵²Соколовская Л.В. Неглазуванная керамика средневекового Самарканда, как фактор экономика городского ремесла (по материалам городища Афрасиаб конца VII начала XIII вв)//Дисс. на соиск. уч. степ. канд.ист.наук. -Т.,1995г. -С. 55

⁵³Лебедева Т.И., Керамика Афрасиаба V-V вв // ИМКУ. Вып.23 -Т.,1990. -С. 160-168.

⁵⁴Бердимуродов А.Э., Самибаев М.К. Керамические комплексы из нового согдийского храма Джартепа II // ИМКУ, Вып. 27. -Т., 1996. -С. 91-100.

Sopollarning tayyorlanish usuliga qarab, ularni ikki turga bo'lish mumkin: Xususan, charxda qilingan sopollar va qo'lda yasalgan sopol idishlar.

Charxda yasalgan sopollar xalqaro savdoda muhim ahamiyat kasb etgan⁵⁵.

Sug'dda asosan, ilk o'rta asrlarda sopollarini charxda ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilganligi tadqiqot natijalaridan ma'lum. Qo'lda yasalgan sopollar ham uchraydi, ammo ular kamchilikni tashkil etadi. Charxda yasalgan idishlar ham vazifasiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Xususan, oshxona idishlari krujka, kosa, kichik ko'zalar, bolalar uchun mo'ljallangan piyola idishlari, ularga yaqin bo'lgan shamdonlar, siyohdon, aqchadonlarni kiritish mumkin.

Xo'jalik uchun mo'ljallangan idishlar ham har xillikni tashkil etadi. Xo'jalik idishlariga xum, xumcha, tuvak va banka shaklidagi idishlar, tog'ora va ko'zalarni kiritishimiz mumkin. Gigiyena uchun mo'ljallangan idishlar, qo'l yuvadigan, bolalarning tuvagi juda kam uchraydi va bular ham xo'jalik uchun mo'ljallangan idishlar qatoriga kiradi⁵⁶.

2.3 Xo'jalik uchun mo'ljallangan sopol idishlar

Yuqorida ta'kidlanganimizdek, xo'jalik uchun mo'ljallangan idishlar har xillikni tashkil etib, ularning o'lchamlari katta, devorlari esa qalin bo'lan. Kofirqal'ada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida ko'plab xumlar topilgan bo'lib, bunday xumlarning charxda qilingani ko'pchilikni tashkil etadi. Albatta, qo'lda yasalganlarini ham uchratish mumkin. Lekin, ular kamchilikni tashkil etadi.

Xumlar ko'proq zahira saqlashda qo'l keladi. Ularda un, bug'doy saqlangan bo'lib, saqlanayotgan maxsulotlar toza va quruq, yaxshi saqlashda qo'l keladi.⁵⁷

Kofirqal'aning yuqori qatlamlaridan 26 ta xum olingan bo'lib, ular har xil shakllikni tashkil etadi va ularni charxda yasalgan, pishirishda yetarlicha olov berilgan. Yodgorlik xumlarini 7 turga bo'lish mumkin.

⁵⁵Бентович И.Б.Керамика Пенжикента //МИА. №37. -М-Л., 1953. -С. 144

⁵⁶Бентович И.Б.Керамика верхнего слоя Пенжикента (VII-VIII вв.)//МИА. № 124.-М-Л.,1964. -С 265-98.

⁵⁷Быркина Г. А.Юго-Западная в первой половине I тысячелетия нашей эры.-М.1982. -С. 52.

1-turdagi xumlar bo'yinsiz, gardishi kovurg'asimon ichki tomonga toraygan. Bu xumlar qorni pastdan yuqoriga kengayib boradi. Uning diametri har xil shaklda ya'ni 32- 35 sm gacha yetadi (10:2-rasm).

2-tur xumlari uzun, gardishi vertikal tushgan, uncha katta emas, bo'yni deyarli bilinmaydi. Uning gardish qismining diametri 30-32sm ni tashkil etadi. Xumlarning qorin qismidan tana shakli yelkasiga qadar torayib kelgan (10:3-rasm).

3-tur xumlarining gardishlari ham uzun, deyarli gorizontal yotiq ko'rinishda bo'lgan. Qorni shar shaklida, diametri 23-25 sm. dan iborat (11.3-rasm)

4-turdagi dumaloq shakldagi gardishli xumlar ba'zi paytlarda ichkariga bilinar-bilinmas qayrilgan bo'ladi. Bo'yni, gavdasidan tez ajralgan, qornidan kesilgan bikonicheskiy ko'rinishda bo'lgan. Diametri 26-31sm ga yetgan (11.4-rasm).

5-turdagi xumlarning gardishi ichkariga egilgan bo'ladi, gardishlar ichkari tomonidan uchburchaksimon bo'lgan. Bunday xumlarning qorni keng bo'lib, diametri 24-34 sm bo'ladi (12.5-rasm)

6-turdagi xumlarning gardishi tashqi tomoni o'rkachsimon, ichki tomoni uchburchaksimon ko'rinishga ega. Bunday xumlarning qorni shar shaklida, ularning diametri 24-34 sm ga teng (12.6-rasm).

7-turdagi xumlarning tashkari tomonio'tkir shaklda egilgan, uchburchak kesmali, tor bo'yinli, qorni shar shaklida, og'zining diametri 34-36 sm ga teng (12.7-rasm)

Bu xumlar bir qancha harakterga ega bo'lgan. Ular yaxshi tayyorlangan loydan qilingan bo'lib, tarkibiga shamot va maydalangan tosh qo'shilgan olovda yaxshilab pishirilgan. Ular jigar va qoramtir jigar rang angob bilan qoplangan.

Ko'zalar

Markaziy Osiyo xalqlari ichimlik suvini saqlash va ularni tashish uchun doim ko'zalardan foydalanib kelishgan⁵⁸. Kofirqal'ada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida ko'zalarni ham uchratish mumkin. Ularni 4 turga bo'lish mumkin:

1-tur tor bo'yinli, qorni keng ko'zalar. Bular asosan dastasiz bo'ladi. Gardishi ichkariga botiq qayrilgan, u keskir to'g'riburchakli ko'rinishda, yuqori tomoni dumaloq shaklda bo'lgan. Diametri 7sm dan iborat (13.1-rasm).

2-turdagi ko'zalar ham tor bo'yinli, gorizontaal ko'rinishdagi gardishli. Gardish hamma vaqt tashqariga bo'rtib chiqqan. Diametri 8-9 sm bo'ladi (13, 2rasm).

3-turdagi ko'zalarning gardishi shishgan to'g'ri og'zigacha tor bo'yinli, tepasi yumaloq shaklda bo'lib, uning diametri 8-9 sm ga teng (13.3-rasm).

4-turdagi ko'zalar keng bo'yinli dastasiz bo'lgan. Ularning qorni yarim shar shaklida, gardishi to'g'riburchakli, uchburchak ba'zi paytlarda tashqariga qaragan bo'ladi. Ularning diametri 14-15sm ni tashkil etadi (13. 4-rasm).

Qo'shquloq

Qo'shquloq ham har xil o'lcham va shaklda bo'lib, ular oziq ovqatlarni saqlashda ham xizmat qilgandir. Bir qancha hollarda qo'shquloqlardan oziq - ovqot tashishdahan foydalangan. Ularga olov yaxshi berilgan bo'ladi, tashqari tomoniga jigar, qorag'uch jigar rang va qizil rang angob berilgan. Bir qanchasi bo'yinli bo'lib, bo'ynining tagida to'g'ri chiziq bilan aylantirilgan. Gardishi va qornining tuzilishi har xillikni tashkil etadi. Bularni 3-turga bo'lish mumkin:

1-turdagi gardishi tashqariga qaragan, qorni yarim shar shaklda, diametri 12-13sm ga teng (14.1-rasm).

2-turdagi qo'shquloqlarning bo'yn qismigacha qornikengaygan holda bo'lib, qovurg'asimon gardishli, gardishi ichkariga qayrilgan. Diametri 15-16sm (16, 2-rasm). Bu turdagi idishlar qorni shar shaklida shishgan bo'ladi.

3-turdagi qo'shquloqlar uncha bulmagan gardishli. Yuqorisi chuvukli

⁵⁸Пещерева.Е.М. Гончарное производство Средней Азии. -М.,1959. -С.273

ko'rinishga ega bo'lgan, qorni yarim shar shaklida bo'lgan. Diametri 17-18sm dan iborat (14, 3-rasm).

Tog'oralar

Tog'oralarning pastiga qarab torayib boradi, tepasiga qarab esa kengayib boradi. Kofirqal'a tog'oralarini ikki turga bo'lishimiz mumkin:

1-turdagilar konussimon to'g'ri gardishli (15, 1-rasm).

2-turdagi tog'oralar bikonik shaklda bo'lib, dumaloq gardishli uchiga qarab kengayib boradi, ichkariga egilgan (15, 2-rasm).

Ular yaxshi tayyorlangan loydan qilingan bo'lib, uning tarkibida maydalangan kvars va gipsni uchratish mumkin. Jigar rangli angob bilan qoplangan.

Ye.M. Pisherovning etnografik kuzatishga asoslangan holda tog'oralardan hamir tayyorlashda va kir yuvishda keng foydalanilgan degan xulosani bergan⁵⁹.

Xurmocha

Bu turdagi idishlar asosan katta bo'yinli, yupqa devorli, yaxshi tayyorlangan loydan yasalgandir. Sopolning yelkasiga qadar kengayib keladi, pastga qarab esa torayadi. Ularni 5 turga ajratish mumkin:

1-turdagi xurmocha katta qorni shar shaklda bo'lib, qorni pastdan yuqoriga qarab kengayib boradi. Baland bo'lmagan og'izli, gardishi tashqariga qayrilgan. Uchiga qarab gardishi torayib boradi. gardish oxirida uchburchaksimon ko'rinishda. Ularning diametri 17-20 sm bo'ladi.(16.1rasm).

2-turdagi xurmocha keng og'izli bo'lib, gardishi oxirida uchburchak shaklda, gardishi birdan qayrilgan, qorni o'rta qismiga qarab kengayib keladi, tanasi shar shaklda .

3-turdagi xurmocha keng og'izli bo'lib, gardishi botikroq ichkariga

⁵⁹Пещерева Е.М. Гончарное производство Средней Азии. -М.,1959. -С. 256

egilgan, og'zi tor bo'g'zidan ajralgan. Diametr gorlovin 17-18 sm (16.3- rasm).

4-turdagilar banka shakldagi xurmocha. Gardishi kush tumshug'i shakida tashqariga egilgan bo'ladi. Diametr gorle 12-16 sm (16, 4-rasm).

5-turdagilari katta bo'lgan xurmocha qorni shar shaklda bo'ladi, to'g'ri gardishli vertikal' tushgan, gardishning tashkari tomoni kovurg'asimon bo'ladi(16.5-rasm).

Tuvak qizil-jigar rang, ba'zilar jigar rangli angob beriladi.

2.4 Oshxona idishlari

Oshxona idishlari o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

1. O'choqboshi idishlari.

Qozonlar. Bu turdagi idishlardan asosan ovqat pishirishda keng foydalanilgan. Kofirqal'aning yuqori qatlamlaridan charxda yasalgan qozonlar keng tarqalgan, ulardan o'choqlarda ovqat pishirishda keng foydalanishgan. Kofirqal'a qozonlarining tagi tekis, dumaloq shaklda har har xil o'lchamlarda uchratish mumkin. Ularning diametri 17-18sm dan to 26-29 sm gacha qorni 30-35-40sm gacha bo'lgandir. Devorlari uncha qalin emas, 05,07,09 sm, Ularning loylari bir oz qo'polroq, sirti g'adir-budir; sababi - loyga shamot va mayda tuyilgan oqtosh va chig'anoqlar qo'shilgan. Bu qo'shilmalar qozonlarning olovga bardoshlilik va olov darajasi keskin o'zgarganda ham ularning sifati kafolatlanadi. Singan jayining rangi qizil qorag'ich qizil rangda. Qozonlarqornining tuzilishi va gardishiga qarab bir necha turga ajratish mumkin:

1 turdagi qozonlar qorni shar shaklda bo'lib gardishi uchburchak shakldagi oraliqda ichkariga qarab qayrilgan, qopqoq uchun gardishning ichkari tomonidan uchburchak «chuqurcha» qilingan u qopqoqning oson yopilishigayordam bergan. Gardishning uchi sal o'tkirrok shaklda.(17.1-rasm)

2 turdagi qozonlar birinchi toifadagi qozonlarga o'xshaydi lekin, ularni faqat gardishidan farqlash mumkin.(17.2-rasm).

3 turdagi qozonlar katta bo'lmagan bo'yinli, tanasi birdan kengaygan. Gardishi o'tkirroq, tashqariga birdanqayrilgan, gardishining ko'rinishi uchburchak shakldagi qirqim. (17.3-rasm)

4 turdagi qozonlarning qorni shar shakldagi ko'rinishda, katta bo'lmagan bo'yinli, gardishi uchburchakli dumaloq (18.2-rasm).

5 turdagi qozonlar yarim shar shakldagi qorinli, katta bo'yinli, gardishi tashkariga uchburchak shaklda biroz chiqqan, bir qancha hollarda gardishi kengayib, oxirida ingichkalashadi (18.2-rasm)

6 turdagi qozonlar asosan kichkina o'lchamli bo'ladi,. Ularning qorni biroz shishgan shar shaklda bo'lib, gardishi to'g'ri burchakli tashqariga egilgan bo'ladi (18.3-rasm).

Dasturxon idishlariga yupqa devorli kichkina idishlar - kosa, krujka va ko'zachalarlarni kiritish mumkin. Kofirqal'a yodgorligidagi bu turdagi idishlar uncha ko'p har xillikni tashkil etmaydi. Bu turdagi idishlar rangli yaxshi loydan qilingan bo'lib, ularning ba'zilarining tarkibiga hech narsa qo'shilmagan. Olovda o'rtacha darajada pishirilgan. Idishlarning devorlari yuqa, ular qizil va qorag'ich qizil angob bilan qoplangan.

Kosalar ochiq turdagi idishlar bo'lib, yodgorlikning kosalarini ikki turga bo'lish mumkin:

1-turdagi kosalar tekis, konussimon pastga qarab torayib boradi, yuqori qismi kirgan, uncha katta bo'lmagan qavariq. Kosaning diametri 16-18 sm. Chuqurligi taxminan 4-5 sm devori yupqa 03-05 sm (19.1-rasm).

2-turdagi kosalar katta o'lchamda ichi chuqur, qorni yarim aylana shakldagi “gofrlangan” gardishli, tashqari tomonga egilgan. Kosaning diametri 22-24 sm tashkil etadi. Chuqurligi 9-10 sm, devori biroz qalin 0,6- 0,8 sm (19.2-rasm).

Kosalar charxda tayyorlangan, ularning ichkari va tashqarisini jigar va qizil jigar rangli angob bilan iqoplangan. Chuqur kosalar ba'zi paytlarda tashqari

tomoni to'g'ri chiziq qilib angob berilgan. Anologik jihatdan ular Panjikent va Afrosiyob kosalariga ancha o'xshash.

Kurjkalar juda ham harakterli fo'rma ilk o'rta asr sopollari uchun ularning devorlari yupqa bo'lib, oshxona idishlari turkumiga kiradi.

Kofirqal'a krujkalarining diametri 10 sm dan to 15 sm gachadir, pastki qismining diametri 4-6 sm bo'ladi. Panjikent harobalarida ko'p yillar davomida arxeologik tadqiqodlar olib borgan I.B. Bentovich Panjikent krujkalarini ikki turga bo'lgan⁶⁰.

Kofirqal'a krujkalarini ham ikki turga bo'lish mumkin:

1-turdagi kurjkalarining qorin qismi dumaloq bo'lib, ikki xil shakldan iborat. Qorin qismining pasti konussimon, yuqorisi silindrsimon shaklda, bo'yni biroz uzunroq devori kengayib borib qorin qismida bo'rtma hosil qilgan. Suv ichish uchun mo'ljallangan. Boldog'i ovalsimon ko'rinishda bo'lib, qorin qismi devorga mustahkamlangan. Yuqorisining diametri 14-16 sm gacha keladi (20.1-rasm).

2-turdagi krujkalar tuzilish formasi va og'zi 1-turdagi krujkalarga judayam o'xshash. Lekin ular kichkina o'lchamda, bo'yin qismi qorni bilan qo'shilib ketgan. Og'zining diametri 10-11 sm. (20.2-rasm). Krujkalar ba'zan sulyudalar bilan qoplangan.

Bu turdagi idishlar hammasi yaxshi tayyorlangan loydan qilinadi va o'rtacha darajada pishirilgan, naqshsiz, jigar rang qorag'uch jigar va qorag'uch qizil rangli angob bilan qoplangan. Ba'zi paytlarda angob ham surtilgan bo'ladi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, yodgorlikning yuqori qatlamlaridan ilk o'rta asr sopollari Sug'd sopollari ichida o'ziga xosligi bilan ajralib turishi haqida yetarlicha ma'lumot beradi. E'tibor qiladigan bo'lsak, ilk o'rta asr Kofirqal'a sopollari Markaziy Osiyo yoki Sug'd sopollari bilan rivojlanishi parallel ravishda ketishini ko'rishimiz mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Kofirqal'a sopollari Panjikent sopollari bilan juda yaqinligini kuzatishimiz mumkin. Ularga krujka, kosa va tor bo'yinli ko'zalarni kiritishimiz

⁶⁰Бентович И.Б. Керамика Пенжикента // МИА.– М.-Л., 1953.–С. 138

mumkin.

Kofirqal'a Afrosiyobga yaqin bo'lgani uchun ham ularning ilk o'rta asr sopollari bir-biriga o'xshashdir. Afrosiyob harobalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bu yerda hayot to mo'g'llarbosqiniga kadar davom etganligini ko'rsatadi. Bundan keyin shahar vayron bo'lib, hayot tarzi to'xtagan. Shahar haqida yozma manbalar ham bor bo'lib, ular shaharning ishlab chiqarish, ijtimoiy-io'tisodiy hayoti haqida to'laroq ma'lumot bermaydi, arxeologik tadqiqotlar davomida bunday ma'lumotlarni qo'lga kiritish mumkin.

2.5 Sopol idishlarning naqsh belgilari

Sug'dda ilk o'rta asrlarda arablar bosqini arafasida shaharsozlik madaniyati juda ham keng rivoj topgan. Xalqaro savdo aloqalari rivojlanib, sopol ishlab chiqarishda charxda yasalgan sifatli sopollar ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Vohada ilk o'rta asrlarda charxda yasalgan sopollar keng tarqalgan. Bu esa Sug'dda ilk o'rta asrlarda yuqori darajada sopol ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. Undan tashqari, kumush idishlarga taqlid qilib, slyudadan keng foydalanilgan sopollarni ham uchratish mumkin.

Ko'p idishlarga muhr tushirilgan. Bitta muhr bir qancha idishlarga tushirilganini ham ko'rishimiz mumkin. Panjikentning yuqori qatlam sopollarida muhrli naqshlardan keng foydalanganlar. Ularning ba'zilar bir-birini takrorlagan holda bosilgan.

Panjikent yuqori qatlam sopollaridagi naqshlarni A.M. Beleniskiy bir necha turlarga bo'ladi:

1. Muhrlangan.
2. Qo'lda yopishtirilgan.
3. Chizib chiqilgan(bo'q bilan).

Sopollarga tushirilgan naqshlarga qarab ularni bir nechta ko'rinishga ajratish mumkin:

- a). Geometrik.
- b). O'simliksimon.
- v). Zoomorf.
- g). Antromorf.

kabi turlarga bo'ladi.⁶¹

Kofirqal'ada naqsh solingan sopollar ko'plab uchraydi. Ularni yuqoridagi tiplarga ajratib, u Sug'd hududining sopol ishlab chikarish va savdoning muhim tarmog'ida joylashganini keltirish mumkin⁶².

Muhr sopol pishirilmasdan oldin bosilgan va keyin pishirilgan. Muhrlangan antromorf - ayol va erkak tasviri tushirilgan sopollarni dastlab G.V. Grigoryevo'rganib chiqqan. Tadqiqotchi kulolchilik xumdoni atrofidagi sopollarga tushirilgan muhrlarning tahliliga to'xtalib o'tgan. Xususan, yon tomon biroz qayrilgan holatdagi erkakning qiyofalari idishda tasvirlangan bo'lib, ularning sochlari jingalak, qulog'ida esa sirg'a taqilgan holatida. Burni ingichka, ko'z kosasi bodom danagi shaklda, mo'ylovi pastga qarab qayrilgan, uchiga qarab ingichkalashib borgan. G.V. Grigoryev shunga o'xshash tasvirlarni shimoliy Mo'g'ulistondan topilgan matolarda keng tarqalganini ta'kidlaydi. Bunday tasvirlar grek uslubida ishlangan degan xulosaga keladi. Burilib qarab turgan jingalak sochli, avval yuzli, mo'ylovli, katta burunli turk tasvirini ham sopollardagi naqshlarda uchrashini tadqiqotchi ma'lum qiladi (21-rasm)⁶³. Mustaqillik yillarida yodgorlikda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida sopollarning ko'plab turi topildi va ularga tushirilgan naqishlarga qarab ajratish imkoniyatini berdi. Ayol va erkakning yonma-yon o'tirgan tasviri tushirilgan

⁶¹Бентович И.Б. Керамика верхнего слоя Пенжикента (VII-VIII вв.)//МИА. № 124 -М.,-Л.,1953.-С. 295

⁶²Григорьев Г.В. К вопросу о художественном ремесле до мусульманского Согда // КСИИМК. №12. -М.-Л.,1946. -С. 94-103

⁶³Григорьев Г.В.К вопросу о художественном ремесле до мусульманского Согда // КСИИМК. №12. -М.,1946.- рис1 рис 47

sopol bo'lagi arxeologik qazishmalar davomida topilgan bo'lib, ularning sochlari orqa tomonga qarab taralgan. Erkakning yuzi aval shaklda mo'ylovli va soqolli, kulib turgan holatda tasvirlangan. Ayolning ham yuzi aval, ko'zlari bodom danagi shaklda, chap tomonga burilgan holatda tasvirlangan bo'lsa, Erkak esa o'ng tomonga qarab burilgan holatda tasvirlangan. Undan tashqari erkakning sochi olingan holatdagi tasvirlari sopollarda ko'p uchraydi (22-rasm)

Qo'lda yopishtirilgan naqshlar ham Kofirqal'ada keng tarkalgan bo'lib, ular asosan katta sopol idishlarning og'ziga va baldog'iga yopishtirilgan. Bunday naqshlar Kofirqal'a yodgorligi sopollariga xosdir. Xususan, yodgorlikdan butun ko'za topilgan bo'lib, uning bo'ynidan pastga qarab erkakning yuzi tushirilgan ko'za topilgan. Ko'zaning balandligi 27 sm ni tashkil etadi, erkakning ko'zlari va burni katta, to'g'ri mo'ylovli, soqqoli va qulog'iga sirg'a taqqan. G.V. Grigoryevning ta'kidlashicha sopoldagi tasvirlar orqali ularni etnik guruhlariga ajratish mumkinligini xulosa qiladi.⁶⁴ Qo'lda yopishtirilgan naqshlar ko'proq katta idishlarga, ularning dastasi tagiga, gardishning tagigaba'zan esa idishlarning jo'mragiga qo'lda harxil tasvirlarni tushiradi (23-24 rasmlar).

Zamorif naqshlartushirilgyn sopollarni ham uchratish mumkin. Ularda bug'u, tuya, echki tasviri tushirilgan. Undan tashqari, yodgorlikning sopollarida sher tasviri tushirilgan idish arkda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida qo'lga kiritilgan bo'lib, u odamning yonida turgan holati tasvirlangan. Albatta sher tasvirlarini yodgorlik bullalari va Panjikent devoriy suratlarida ham uchratish mumkin. O'simlik va shoxni tasviri tushirilgan naqshlar yodgorlikdan topilga, ularda shox yoki hosildor anor tasviri tushirilgan. Bular ayniqsa sopol hali pishirilmagan paytda ularni o'tkirroq narsa bilan chizganlar va keyin pishirganlar. I.B. Bentovichning ta'kidlashicha anorning tasviri kadimdan hosildorlik xudosi bo'lganligi bilan bog'laydi⁶⁵. Shox tasviri tushirilgan idishlar yodgorlikda keng tarqalgan. Shox tasviri yodgorlikning ostadonlariga ham tushirilgan (25-rasm). Kofirqal'a sopollarida har xil geometrik naqshlarni

⁶⁴Григорьев Г.В.К вопросу о художественном ремесле до мусульманского Согда // КСИИМК. № 12. -М.,1946. Рис. 49.

⁶⁵Бентович И.Б.Керамика верхнего слоя Пенжикента (VII-VIII вв.)//МИА. №. 124. -М-Л.,1964. -С. 296

ham uchratish mumkin, ulardan keng tarqalganlari uchburchak shakldagi va to'liqsimonli to'g'ri chiziqli naqshlardur, ular sopollarning yelka va ba'zan bo'yni tomoniga tushirilgan (26-rasm). Bunday naqshlarni Afrosiyob va Panjikent sopollarida uchratish mumkin.

Panjikentdan 6 ta muhr topilgan bo'lib, ulardan 2 tasi toshga, 4 tasi brozaga va kumushga tushirilgan. Ular oval shaklda, muhrning o'rtasi chuqurroq, ulardahayvonlarni, qushlarni va odamlarning tasvirlarini uchratish mumkin. Masalan, odam tasviri tushirilgan tosh muhrning diametri 1 sm tashkil etadi, keyingi tosh muhrida anorning tasvirini uchratish mumkin, uning o'lchami 0,5 sm. I.B. Bentovichning ta'kidlashicha muhr quyilgan xumlar, savdo uchun mo'ljallangan. Odamning tasviri tushirilgan xumdagi tasvirga juda yaqin o'xshashlikni Mug' hujjatlaridagi tasvirlarda ham uchratish mumkin. Ularni nima maqsadda qo'yilganligi aniq emas⁶⁶.

Ularni tadqiqotchi VI-VII asrga ta'luqli deb tahmin qiladi. Tadqiqotlarda yodgorlikdan bir necha haykallar ham qazib olingan, undan tashqari, sopollar devorlariga bir qancha tasvirlar tushirilgan. Xususan, tor ko'zli, yuziga ajin tushgan, chukki soqolli, erkakning bir qo'lida bulava va chekin, chap qo'lida esa, pichoq ushlab turgan tasvirlarni tadqiqotchi keltirib o'tgan. Undan tashqari odamlar hayvolar ustiga minib turgan haykalchalarni ham uchratish mumkin. Zoomorftasvirlari ot, sigir, qo'y, echkini ham uchratish mumkin.(46 3.4-rasm) idishga turk tasviri tushirilgan (45.4rasm) Talli Barzuning sosoniylar davri qatlamlarida ham uchratish mumkin. Idishga turk kishisi tasviri tushirilgan rasmlar(46.1-rasm) ham bo'lib ular mukammal darajada ishlangan⁶⁷.

Xullas, yodgorlikning ilk o'rta asr sopollari har xil bo'lib ularga tushirilgan naqshlar ham xima-xillikni tashkil etadi. Olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sopollarga naqsh berish arablar bosqini arafasida ulardan keng foydalanganlar. Arablarning bosqinidan keyin idishlarning turi yo'qolib ketish bilan birga naqsh solish va slyudadan foydalanish ham yo'qola borgan.

⁶⁶Бентович И.Б. Керамика верхнего слоя Пенжикента (VII-VIII вв.)/МИА. №.М-Л.,1964.С. 268.

⁶⁷Григорьев Г.В. К вопросу о художественном ремесле домусульманского Согда // КСИИМК. № 12. -М.,1946. Рис. 49.

2.6 Kofirqal'a kulolchiligining ilk o'rta asr Sug'd hunarmandchiligida tutgan o'rni

Kofirqal'a arablar bosqini arafasida sopol buyumlar ishlab chiqarish taraqqiy etti. Ularni tashqari tomoniga har xil naqsh solish ulullari ham takomillashdi. Yodgorlikning sopollari Markaziy Osiyo ilk o'rta asr sopollari bilan o'xshashligi va ular bilan parallel ravishda rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Panjukent oshxona idishlari sopollari ham har xillilikni tashkil etadi. Kosalar Kofirqal'a kosalariga o'xshab ikki turga bo'linadi. Ya'ni tekis va chuqur kosalaridir. Tekis kosalar asosan qiya devorli bo'lib, ochiq shakldagi idishlar ularning cheti teks ba'zi paytlarda esa bukri shaklda bo'ladi. Kosaning diametri 13-15 sm, chuqurligi 4,5-5 sm bo'ladi tagining diametri 7-8sm bo'ladi tagiga qarab kengayib baradi. (6,7,23-rasm.)

Chuqur kosalar dumoloq shaklda bo'lib, gardishi tashqariga bir oz egilgan, ba'zi paytlarda ular uncha chuqur bo'lmagan (1,2,23-rasm).

Panjikent krujkalari juda harakterni hisoblanadi, ularning o'lchami har xillilikni tashkil etadi. Balandligi 6-15 sm gacha, yuqorisining diyametri 8-16sm gacha, pasining diyametri 4-6 sm tashkil etadi. Katta krujkalarning qorni ba'zi paytlarda qornining o'rta qismi naqshlar kilinadi. Qornida shtamp bosilganlarini uchratish mumkin. Panjikent sopollarining quyi qatlamlari sopollari asosan Talibarzu IV bilan belgilanadi ya'ni V-VI asrlar bilan Bunga o'xshash toyifodagi sopollarni Qo'ldartepa sopollarida keng tarkalgani.

Janubiy Sug'd Qashqadaryo hududida joylashgan Isoboytepada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ko'plab sopol qoldiklari olingan bo'lib ular Kofirqal'a yuqori qatlam sopollari bilan harakterlidir. Ular o'rtasidagi yaqinlikni xo'jalik sopollari ko'za, kosa, Hurmochada uchratish mumkin. Isoboytepa

sopollarini tadqiqotchilar tomonidan VII-VIII asrlar deb belgilangan.⁶⁸

Jizzax vohasida ko'p yillar davomida A. Berdimurodav va M. Pardayevlar tomonidan arxeologik tadqiqotlar amalga oshirilib kelindi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida bir qancha shahar, kishloq, qo'rg'on kasrlar o'rganildi. Shulardan kasr Kingirtepa va Komilbobotepa, Almantepa yodgorliklarining yuqori qatlamlari sopollari Kofirqal'a sopollari bilan harakterlidir. Ulardan eng asosiysi Qing'irtepo slyudali ko'za olingan bo'lib, bu turdagi idishlar keng tarqalgan⁶⁹. Shimoliy g'arbiy usturshona sopollari VII-VIII asrlarda parallel ravishda rivojlanganini ko'rishimiz mumkin⁷⁰.

Qadimgi Choch hududi sopollarida ham Sug'd sopollarini ta'sirini ko'rishimiz mumkin Oqtepa sopollariga o'xshash sopollar sug'dning Talli Barzu, Kofirqal'a va Panjikent sopollarida ko'rishimiz mumkin⁷¹.

Kofirqal'a sopollari bilan o'xshash sopollar Tali-Barzudan topib o'rganilgan yodgorlik Samarqanddan 6 km janubda joylashgan. Uning umimuy maydoni 6-km tashkil etadi. Yodgorlikda o'tgan asrning 30-yillarda keng qamrovli arxeologik tadqiqot olib borildi va natijada xitoy va arab tarixchilari tomonidan qayt etilgan. Sug'dning mustaqil ishxidlarining qarorgohi ekanligi haqida xulosalar berdi. Tali-Barzu axmoniylar davridan to arablar davrigacha bo'lgan madaniy qatlamlani uchratilishi tadqiqotchi tomonidan kayt etdi va Grigoryev 6 ta madaniy qatlamlarga ajratadi. Olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha sug'd sopollari ilk o'rta asrlarda keng xududga tarqalganligidan dalolat beradi. Yodgorlikning dasturxon idishlari- kasa, tor bo'yinli ko'za, krujkalari bilan

Xullas, Kofirqal'ada Samarqand sug'dining muhim tarmog'ida joylashgan shaxar xisoblanadi. Yodgorlik ilk o'rta asrlarda Afrasiyob, Panjiken, Choch, Jizzax va Naxshab bilan madaniy aloqalari bo'lganligini sopol buyumlari orqali xam ko'rishimiz mumkin. Ko'p yillik olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni

⁶⁸Исамиддинов М.Х.,ХасановМ.Х.История древнего исредневековогокерамическогопроизводстваНахшаба-Т., 2000. -С.118-125.

⁶⁹Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х., Замок Кингиртепа//ИМКУ. Вып.22. -Т., 1988. -С. 66-75.

⁷⁰Пардаев М.Х. Жиззах вохасининг VII-VIII асрлардаги кулолчилик идишлари//ИМКУ.Вып 30. 1999.б 145-151

⁷¹Беленички А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии.-Л., 1973.С.62

ko'rsatakichi, yodgorlik Sug'd ixshidlarining yozgi qarorgoxi vazifasini bajargan.

III.BOB KOFIRQAL'ADA QILINGAN MUHIM KASHFIYOTLAR

3.1 Kofirqal'a bullalari

Bulla – podsho y’oki biron bir boy amaldorning muxri tushirilgan pechat. Ular Sug’d yoki Markaziy Osiyo ilk o’rta asrlar ijtimoiy - iqtisodiy yozuv tarixini o’rganishda muxim ahamiyat kasb etadi.

Kofirqal’ada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ko’plab sopol parchalari va tanga buyumlardan tashqari bullalar ham topilgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, 2001 yilda A.E. Berdimurodov boshchiligidagi tashkil etilgan, qo’shma ekspeditsiya tadqiqotlari asosiy maydonning kirish joyida olib borildi. Qatlam 90 – 100 sm. qalinlikda bo’lib, kul qoldiqlari topildi. Yer (pol) qismining qalinligi 20 sm. Sopol bo’laklari pol qismidan ko’plab topilgan. Tadqiqotlar natijasida kirish joyining pastki pol qismida 300 nusxaga yaqin bullalar topilgan. Bullalar asosan hujjatlar o’rnida ham ishlatilgan. Yaxshi tayyorlangan loydan qo’lda qilingan rangi qizg’ish. Ular kul ostida saqlangan yong’in tasirida korayib qolgan⁷².

2002 yilda ham qo’shma ekspeditsiya o’z faoliyatini yodgorlikning 2001yilda olib borilgan joyidan boshlandi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida ko’plab sopol buyumlar bilan bir qatorda 114 ta bulla topildi. Ularning umumiy soni 414 taga yetdi. Ba’zilar saqlangan, ayrimlari yong’in natijasida o’z holatini yo’qotgan⁷³.

2005 yilda ham Kofirqal’ada qo’shma ekspeditsiyaning arxeologik tadqiqotlarida ko’plab sopollar, toshdan, temirdan, bronzadan va yog’ochdan qilingan buyumlar, eng asosiysi tanga va 84 bullalar qo’lga kiritildi⁷⁴. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida Kofirqal’a yodgorligi arkidan jami 500 yaqin bullalar olingan bo’lib, ular yaxshi saqlanmagan. Diametri ham har xillikni tashkil etadi⁷⁵. Yodgorlik bullalari kichikroq, dumoloq va oval shakilda qo’lda yasalgan bolib, o’lchamlari har xil diametri 1.3 sm balandligi 1-1.3 sm. Bullalarning orqa tomonida uzun yoy yaqinida ipning izi bor, ular yordamida

⁷²Абдуллаев К. Бердимуродов А. Э. Античные сюжеты в раннесредневековой глиптике Согда по буллам городища Кафыркала под Самаркандом // Матери.по акт. -С., 2005. -С. 27

⁷³Бердимуродов А.Э., Менги Энрико., Самибаев М.К. Археологические раскопки на городище Кафыр-кала // Археологические исследования в Узбекистане 2002 г. Вып.3. -Т., 2003 -С. 45

⁷⁴ Бердимуродов А.Э., Матбабаев Б.Х., Мантеллини С., Ронделли Б. Археологические раскопки на городище Кафыр-кала // Археологические исследования в Узбекистане 2004-2005 г .Вып. 5,Т., 2006 -С.,75

⁷⁵Бердимуродов А.Э., Мантеллини С., Матбабаев Б.(Узбекистан, Италия)Кафиркала загорония резиденция Соморкандских правителей.//Самарканднинг умумбашарий маданияний таракиёт тарихида тутган урни.Тошкент- Самарканд .Фан.2007й.,бет 73-77.

xujjat bo'glab qoyilgan. Bullalar kuchli yong'in ta'sirida kuygan A. Berdimurodov bullalarga tushirilgan tasvirlarga karab ularni 3 ta turga bo'ladi:

1. Antropomorf.

2. Zoomorf.

3. Belgi va tamg'ali bullalar.

Antropomorfniy bullalar ko'pchilikni tashkil etadi, ulardagi tasvirda odamlar o'ng tomon qarab turgan holati, bir qanchasida mo'ylovli va soqqolli bosh kiyimli bosh kiyimsiz holatida nomoyon bo'ladi.

Xususan, yoy shaklidagi uzunligi 42 mm, kengligi 30 mm, qalinligi 17 mm. O'ng tomonda, pechat yonida 1 mm o'lchamda bug'doy tasmasi shaklidagi bosma tasvir bor. Bulla qora-kulrang tusda. Bosma tasvir toto'g'ri oval shaklida. Orqa tomoniga yaqinroq joyda ikkala tomonida ham (yuqori va pastki) to'liq teshib o'tmagan teshigi bor. Orqa tomoni barmoq bilan tekislangan. Kompozisiyaning markaziy qismini yalang'och ayol tasviri egallagan. Ayol chap qo'li yelkasi balandligida ko'tarilgan. Yig'ilgan panjasidan pastga tomon uzun chiziq tushgan bo'lib, u taxminlarga ko'ra sharfni anglatga kerak. Biroz pastga tushirilgan o'ng qo'lida esa uchi pastga qaratilgan to'kin-sochinlik ramzi bo'lgan "mo'l-ko'llik shoxi" bor. Yuqori qismi ko'ndalang bo'rtma naqsh bilan ajralib turib, undan vertikal tarzda hosilni anglatuvchi uchta chiziqlar tushgan. Shoxni ushlagan ikkinchi panjasidan nisbatan kaltaroq sharfning oxiri tushib turibdi. Chap tomonda bosma tasvir yonida sug'd yozuvi ketadi. (soatning 11 strelkasi dan quyidagi 6 strelkasigacha). Professor N. Sims-Uilyamsning ma'lumotiga ko'ra, yozuv Nanaya xudosi nomini beradi.

Xudoning tasviri uzaytirilgan holatda tasvirlanib, ayniqsa qorniga katta urg'u berilgan; ko'kraklari baland holatda joylashtirilgan. Tanaga nisbatan qaraganda, boshi kichikroq bo'lib, yirik gajaklar bilan o'ralgan; burni anchayin katta bo'lib, bu yaqqol sezilib turibdi.

Mazkur tasvirdagi aniqlovchi ikonografik belgi "mo'l-ko'llik shoxi"

hisoblanadi. Ellinistik san’atda bu Fortuna xudosiga xosdir. Mazkur xudoning xususiyati “omad”, “hosildorlik”, “mo’l-ko’llik” dir. Analogiya sifatida Shimoliy Baqtriyada Dalvarzintepa yodgorligidan topilgan gemmani keltirish mumkin. Kushon xudolari orasida mo’l-ko’llik shoxi Ardoxsho xudosiga xos bo’lgan. U shox Vasudevaning tangalarida asosiy obraz bo’lgan. Odingi davrlarda, shox Amintas tangalarida Omad-Baxt (Tixe) xudosi taxtda o’tirgan holatda, qo’lida mo’l-ko’llik shoxi bilan tasvirlangan. Omad-Baxt xudosi chap qaragan holda, chap qo’lida mo’l-ko’llik shoxi bilan shox Gippostat tangalarida xam tasvirlangan. Kushon xudolari osmonida Ardoxshodan tashqari Omad-Baxt xudosi bilan yana bir xudo-Nana xam o’xshash. Nana (Nanayya) boylik farovonlik ramzi hisoblanib, Kanishkaning Rabatakadagi yozuvlari ko’rsatishicha, u kushon davlatida ko’proq e’tirof etilgan. Nana e’tiqodi Sug’dda ham rivojlanib, bu ayniqsa ilk o’rta asrlarda kuchaygan. Ayol tasviri tushirilgan bullada o’ng tomonga qaragan holda yon tomondan tasvirlangan. Ularning sochi kalta boynida esa taqinchoqni ko’rishimiz mumkin⁷⁶. Ba’zi bullalarning balandligi 30 mm, kengligi 22 mm, qalinligi 10-12 mm, ikki tarafi 1,5 mm, ip bilan bog’langan. Bullalarning yuqori qismi sariq rangda, asosiy qismi qora rangda. Yuqori asosiy bandi qizil ko’rinishda. Bulla o’rtasida yosh o’smir figurasi tasvirlangan, uning o’ng tomon ko’rinishi berilgan. O’ng qo’li old tarafda tirsagidan buqilgan, oyog’i esa yarim aylana holatiga keltirilgan. O’smirning qo’l barmoqlari aniq ko’rinishga ega. Vertikal’ holda ekanligi ma’lum buladi. Chap oyog’i tizzasidan bo’kilib, yuqoriga ko’tarilgan⁷⁷. Tasvirlangan personaj plashi orqa tarafga keng yoyilgan. Bu holatda, uning kiyimi oddiy kostyum deb ham taklif qilinmoqda. Uncha katta bo’lmagan boshi, muskulli bo’yin qismi aniq ifodalangan. Yelka holati aniq va yorqin tasvirlanishi bilan birga, sonlari ham ajralib turadi. Katta qismni uning figura – qomati egallaydi. Yuz qismi bilan birga ko’zlari ham, qoshlari, soqolsiz keng yuzlari tasvirlangan. O’smirning qomati atletik shaklda ekanligi va boshqa holatlar bilan, rassomning yuqori darajali istyedodli va anatomiyani yaxshi bilgan deb aytishimiz mumkin. Bu

⁷⁶Бердимуратов А.Э., Менги Энрико, Самибаев М.К., Археологические раскопки на городище Кафыр-кала // Археологические исследования в Узбекистане 2002 г. Вып.3, -Т., 2003 -С. 46-47

⁷⁷Абдуллаев К. Бердимуратов А. Э. Античные сюжеты в раннесредневековой глиптике Согда по буллам городища Кафыркала под Самаркандом // Матери.по акт. -С., 2005. -С. 26

bullа boshqalaridan farq qiladi. Antik asarlarga o'xshatishdir. Majmua syujeti A.Futvangler asarida tasvirlab berilgan. Chapdan harakatlanayotgan holati aniq ishlangan. Jangchi qomati – gavgdasining bosh qismi o'ng tomondan tasvirlangan.

Ayol kishining bosh qismi (Afrodita?) Yirik o'lchamli bulla: bo'lib, yarim – oval shaklida, o'lchami: 25 – 21 mm. Qalinligi 6 mm. Qora rangdagi bulla, yong'in natijasida shunday ko'rinishga kelgan. Oq – jigarrang yuqori qismiga oid. Bosh qism egilgan holatida va bezaklari murakkab ko'rinishda. Bosh qismidagi soch turmaklangan⁷⁸. Ikkita quyuq, lab, son qismlar tasvirlangan. Sonlarning pastga yo'naltirilganligi, yelka va bo'yin holati bir qadar aniq ifodalangan. Yuz qism ochiq ko'rinishda, lab, burun bilan birgalikda, og'iz a'zolari ham tasvirlab berilgan, bu esa qadimgi san'at, antik san'at va iloxlar (xudolar) shaklini eslatadi. Podsho Mitridat VI obrazi bilan alaqador ekanligi taxmin qilinadi. Ushbu portret ellin davridagi hukmdorning taniqligini va turli tasvirda berilishini aks ettiradi. Grek xudolari, Mitridat qiyofalarini eslatadi. Gerakl yoki Dionis tasviri bunga yaqinroqdir. Bulardagi tasvir Afrodita obrazini ham berishi mumkin. Bullalarning ba'zilarida ayollarning tasviri ham tushirilgan.

Bulla antik mifologiya bilan bog'liqdir. O'lchami: o'rta qismi 22 mm. kengligi – aylanasi 13 mm. qalinligi 12,5 mm. o'ngdan tasviranishi, aylanasi 3 mm. Havo rangda bo'lib, 2 mm li ip o'tkazilgan. Uning boshi asosiy qismlari aniq ifodalangan. Gavda shakli chap qo'li – o'ng gavda, o'ng qo'li – chap gavda qismga kutarilgan holat aks ettirilgan. Bu kabi tasvirdagi bulimlarni O'rta Osiyoda kam uchratamiz. Panjikentdagi olib borilgan tadqiqotlarda topib, o'rganilgan. Rim etnografiya, tangalari bilan bog'liqdir. Gerb vazifasini bajargan bulla ekanligi ham taxmin qilinadi. O'rta Osiyo topilmalarining VI asri bilan bog'liq bo'lishi ta'kidlanadi. G'arb dunyosi bilan yaqin aloqada bo'lishi ham ushbu bullalar yuzaga kelishiga ta'sir etgan. Tadqiqotni V.V.Propatkin Rim – Vizantiya tangalariga oid ekanligini tasdiqlaydi. O'rta Osiyo hududlariga ushbu yodgorliklar olib kelinganligi ham taxmin qilinadi. Ilk o'rta asr O'rta Osiyo xalqlarining

⁷⁸ Абдуллаев К. Бердимуродов А. Э. Античные сюжеты в раннесредневековой глиптике Согда по буллам городища Кафыркала под Самаркандом// Матери.по акт. -С., 2005. -С. 27.

madaniy aloqalaridan ham guvohlik beradi. Konkret – aniq madaniy komplekslar misol bo'la oladi⁷⁹.

Ikkinchi turga zoomuf bullalarni kiritishimiz mumkin. Ularning shakli va asvirlar har xillikni tashkil etadi. Bu yerda juft bug'ularni kabanov, sherlarni, tuyalarni, fillarni, xo'rozlarning tasvirlari tushirilganligini ko'rishimiz mumkin. Albatta, sherning tasvirini Panjikent devoriy suratlarida ham uchratish mumkin. Kaban tasviri Sug'd va Toxoristonda keng tarqalgan. Kofirqal'a bullalarida kaban tasvirlangan bo'lib, u o'ng tomonyurib ketayotibdi, uning og'iz qismidagi tishi ko'ringan holda tasvirlangan. Tumshug'ining tagiga uchharfli sug'd yozuvi bilan yozib ko'yilgan. Tadqiqotchilar tomonidan yozuvlar o'qishga harakat qilingan unda **prn** – «farn, blagodat» deb yozilgan. Bitta bullalarda qanotli ot tasviri tushirilgan, u o'ng tomonga qarab yurib ketayotgan holatda. Uning yuqori tomoniga yozilgan. Bunday qanotli otlarni Markaziy Osiyoda ko'plab uchratish mumkin.

5. ikki go'dakni oziqlantirayotgan Ona bo'ri

Mazkur bullalarning syujeti to'g'ridan-to'g'ri antik mifologiya bilan bog'liq. So'z ikki go'dakni oziqlantirayotgan ona bo'ri tasviri haqida bormoqda. Yoy tarzidagi uzunligi 22 mm, kengligi 13 mm, qalinligi 12,5 mm. Bullaning o'ng tomonida aylana shakldagi diametri 3 mm bo'lgan o'yiqlik bor. Orqa tomonida kengligi 4 mm bo'lgan chuqur ariqsimon yo'lakcha ketgan. Diametri 2 mm bo'lgan ipning teshik joyi orqa tomonining chetida joylashgan.

Kompozitsiya gorizontaal tarzda ishlangan bo'lib, asosiy maydonni ona bo'ri tasviri egallagan. Uning uzun tumshuqli va pastga osilgan quloqlik va quloqlari chapga tomonga, uning qorni ostida o'tirgan ikki ta yalong'och go'daklarga qaragan. Go'daklar gavdasibir - biriga qaragan. O'ngdagi go'dakning chap qo'li va chapdagi go'dakning o'ng qo'li ona bo'rining ko'kraklari tomonga cho'zilgan, ularning kallalari esa yuqoriga qarab turgan holda tasvirlangan. Go'daklarning oyoqlari biroz tizzasidan bukilgan. Ona bo'rining old oyoqlari gemmaning bo'rtma chizig'iga tayangan holda turibdi. To'g'ri oyoqlari ortga cho'zilgan bo'lib,

⁷⁹ Абдуллаев К. Бердимуродов А. Э. Античные сюжеты в раннесредневековой глиптике Согда по буллам городища Кафыркала под Самаркандом// Матери.по акт. -С., 2005. -С.30-31

umuman ona bo'rining butun gavdasi o'zining oziqlantiruvchilarini har qanday soniyada himoya qilishga tayyor holatda tasvirlangan. Go'daklarni oziqlantirayotgan Ona bo'ri tasviri O'rta Osiyoson'atida kam uchrasada, lekin yagoanemas. Bunday birinchi topilmaqa Rim Panjikentda xo'jalik uyida topilgan. Bu olitndanyasalganbrakteatbo'lib, A.M.BeleniskiyuniRimsimvolibilanbog'laydi. Mazkur turdagi tasvirlarning O'rta Osiyoga kirib kelishining arab dunyosi bilan aloqalar kuchaygan- 7 asr bilan bog'laydi (). Bu tasvirlarni Rim-vizantiya dunyosi tangalaridagi tasvirlar bog'likligi V.V.Kropotkin tadqiqotlari bilan o'z tasdig'ini topadi.

Xuddi shunday topilma Oxongaron vodiysidagi Gul durmaso'qmog'idanhamtopilgan. Biz, yuqorida ta'riflagan bulla aynan shu topilma bilan juda yaqin. Uning barcha qirralarini o'rgangan holda yaratilish davrini 6 asr deb aytishmumkin.

Uchinchi guruhga belgitushirilgan bullalar tadqiqotchi tomonidan ajratilgan. Bir qancha bullalarda U tasvirini ko'rishimiz mumkin. Bunday belgilar sug'd tangalaridan ma'lum. Olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Kofirqal'a bullalari boshqa yodgorlik bullalariga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi. Xususan, Qadimgi Niso Parfiya shahar harobasidan 50 ta, Panjikentdan 47, Sug'd qo'rg'oni bo'lgan Mug'dan 9⁸⁰ ta, Shimoliy Afgonistonda joylashgan Djigartepadan 32 ta bullalar topilib o'rganilgan. Panjikent harobasida dastlabki arxeologik tadqiqotlar V. R. Chaylitko tomonidan 1939 yilda amalga oshirildi. Panjikentda ko'p yillar davomida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida juda ko'plab xona koldiklari ochilgan bo'lib, ular devorining koldiklari 4-m tashkil etadi. 1947-yilda Panjikent arkida dastlabki arxeologik tadqiqot A.I.Terenojkin tomonidan olib borildi. Pandjikent otryad A. M. Beleniskiy boshchiligidagi arxeologik ekspedisiya 1959-1961 yillarda ham davom etdi. Ayniqsa, 1961 yilgi arxeologik tadqiqotlar 4 oy davom etdi (iyul-sentabr). Arxeologik tadqiqotlar VI, VII, XII, XIII, XV, XVI, XVII va XVIII obyektlarda amalga oshirildi. Tadqiqotlar davomida 160 ta tangalar, birinchi marta tekis toshga tushda yozilgan ikki

⁸⁰Бердимуратов А.Э., МенгиЭнрико, СамибаевМ.К. Археологические раскопки на городище Кафыр-кала // Археологические исследования в Узбекистане 2002 г. выпуск 3, Тошкент, 2003 Стр., 47

tomonloma yozuvlar, sopol idishlar, ayniqsa VII obyekt jami 47 ta bullalar olingan bo'lib, ular silindir shaklida qo'lda qilingan o'lchami diametr 05-02gacha, balanligi 05-1.2 sm gacha⁸¹.

Shimoliy Afgonistonda joylashgan Djigartepada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida 32 ta bulla topilgan bo'lib, ular yomon holatda saqlangan va kattaliklari ham har xillikni tashkil etadi. Tadqiqotchi ularni 3 ta turga ajratadi. Ya'ni odamlar tasviri tushirilgan, hayvonlar tasviri tushirilgan va simvollar tushirilgan belgilarga ajratadi. Birinchi turdagi bullarda odamlarung tomon qarab turgani tasvirlangan. Undan tashkari hayvonlar tasviri tushirilgan ikkinchi turdagi bullalarda yozuvlar uchramaydi. Bir qancha bullalar kvadrat shaklda⁸². Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bir qancha bullalar tangalarga semantika qilib yasalgan.

3.2 Kofirqal'a naus va ostadonlar

Ilk o'rta asrlardagi Sug'd dafn marosimlariga e'tibor beradigan bo'lsak, bu borada ayrim o'ziga xos urf – odatlar, marosimlar joriy e'tilganligini guvoh bo'lamiz.

Sug'dda ilk o'rta asrlarda marhumni ostadonlarga solib dafn etish keng tarqalgandir. Suyak etdan tozalanganidan keyin ularni ossuvoriylar ba'zi xollarda xumlarga solib ko'mganlar. Sug'dostadonlar shakli va tuzilishi har bir tumanniki har xil bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Markaziy sug'd ostadonlari to'g'ri to'rt burchak shakldabo'lib, uning devorlarida har xil tasvirlar ba'zi hollarda xudolar tasviri bilan bezatiladi.

Zardushtiylik dinida yer, olov, havo, suv muqaddas xisoblangani bois murda jasadinauslarga ko'yilgan. Nauslar — zardushtiylarning ostadon (ossuariy)larini saklash uchun hizmat qilingan inshoot. O'liklarni qoyalar, baland tepaliklar ustiga tashlab, yirtqich hayvonva qushlarga murdani yedirganlar, keyinchalik ularning suyaklarini ostadonlarga solib nauslarga qo'yilgan⁸³.

⁸¹Беленицкий А. М. О раскопках городища древнего пенженца в 1961 г. Археологические работы в Таджикистане в .Вып.IX.–Д., 1964. –С. 53-75.

⁸³Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т., 2003 йил. 3756

Sug'ddan vohasidan anashunday naus va ostadonlar topilgan bo'lib, o'zida zardushtiy urf odatini namoyon qilgan. Kofirqal'a yodgorligining janubida alohida kichkina bir kancha tepaliklar mavjud bo'lib, ular shaharchaga qo'shilmagan holda joylashganligi I.A. Suxarev tomonidan qayd etilgan edi. Dastlab yodgorlikning bu tepolikgida 1936-yilda tepaliklarning birida arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirdi va 38 ta ossuariy parchasini qo'lga kiritgan edi. Ostadon devorlarining tashkarisiga naqsh solingan. 1938 yilda I.A. Suharev tomonidan tepalikda arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirdi Sharqiy tomonida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida ostadonlar yaxshi saqlangan, g'arbiy tomoni juda ham buzilib ketgan, ularning ustiga musulmonlar davri qabrlari qo'yilgan.

Nauslar tipik shaklda qurilgan bo'lib, ularda ossuariy, xum sinilari va suyak qoldiqlari tadqiqotchi tomonidan qayd etilgan. Ularning uchtasidan bittasi ochilgan bo'lib, unda ikki xonalikilib qurilgan.

Ochilgan nauslardan birida asosiy binoga qadab qurilgan ikkita xona topilgan (1, 1-rasm.). G'arbiy devorda dastlab 2 xona, so'ngra 3 xona qurilgan (1-rasmXona 2, 3). Xonalar yo'laksimon, tomlari gumbazsimon va hajmi kichik (1,24x2,4 m). Bu xonalar paxsa (3-xona) va to'g'ri burchakli xom g'ishtdan (46x48 48x22 23 sm) qilingan (2-xona) yupqa devorlarga ega. Ushbu xonalarning asosiy nausga qadab qurilganligini hisobga olsak, bu holat asosiy nausning to'lib qolganligi yoki xonalar qabrlar uchun mo'ljallanganligi va bu zoraostizm udumlariga mos kelmasligi sababidan qilingan deb hisoblash mumkin. 2 xonaning polida ikkita marhum qo'yilganligi aniqlandi (1, 1; 1-rasmva 2-qabrlar). Shuningdek, bu joyning o'rtasida kvadrat shaklidagi o'yig'i mavjud bo'lgan sug'd tangalari ham topildi. Har ikkala skelet ham 2 xona gumba'zi va devorlaridan qulab tushgan xom g'ishtlar bilan ko'milib qolgan. Ushbu qulagan g'ishtlar orasidan ikkita ossuariy topildi va ularning ichida suyak qoldiqlari mavjud. ushbu ostadonlarning joylashish harakteriga ko'ra ishonch bilan aytilish mumkinki, bu ikkala ostadonlar 2 xonaga uning buzilgan tomi orqali 1 xonadan tashlab yuborilgan. Ostadonlarning ustida uch qirrali temir tig' topilgan. 2 xona bilan hajmiga va

planirovkasiga ko'ra bir xil bo'lgan 3 xonaning bo'shligi ma'lum bo'ldi. Bu xona na ostadonlar va na suyak qoldiqlari topilmadi. 2 va 3 xonalardagi stratigrafik ma'lumotlar ularning pollarida marhumlarni ko'mish uchun mo'ljallanganligini ko'rsatadi. 2 xonaga ikkita marhum ko'milganidan so'ng, uning shimoliy tomonidan 3 xona qurilgan, biroq bu xonada marhumlarni ko'mishga ulgurishmagan. 2 xonadan topilgan tashlab yuborilgan ostadonlar va bir nechta nauslardan nayza tig'larining topilishi ushbu nauslar hamda qabrlarning harbiy harakatlar oqibatida buzilganligini ko'rsatadi.

Kofirqal'a shahar harobasi nekropoli nauslari poliga marhumlar (2 xonada) janubiy va shimoliy devorlar bo'ylab boshlari eshikka qarab qo'yilgan. Birinchi qabr (1, 1-rasm) janubiy devor bo'ylab ko'milgan bo'lib, yaxshi saqlangan. Marhum uzun bo'yli (178 180) erkak kishi bo'lib, boshi shimol g'arb, yuzi janub g'arb tomon qaragan va yelkasi bilan hych qanday buyumlarsiz ko'milgan. Marhumning boshining tagiga hajmi 48x23x8 sm keladigan xom g'isht qo'yilgan. Qarama qarshi devor bo'ylab buzilgan suyak qoldiqlari topilgan (1-rasm. 1-qabr).⁸⁴ Ushbu qabrdagi suyaklar ancha keyingi davrda qazilgan yoriqsimon kamerali qabr tufayli buzilib ketgan. Bu qabr o'rtasi kvadrat teshikli sug'd tangasi bilan sanalanishi mumkin. Ushbu tanga yo'qolgan, biroq ma'lumki, bunday mayda tangalar Vizurgdan boshlab (7 asr seriyalari) Turgargacha bo'lgan (VIII asr).

Harbiy harakatlar oqibatida qadab qurilgan qurilmalarga ega nausning buzilganligini ko'rsatuvchi arxeologik ma'lumotlar bu yerdagi qabrlarni 7 asrning oxiri va 8 asrning o'rtalari bilan sanalash imkonini beradi⁸⁵. G.V. Shishkina tomonidan 1956-1957 yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlari davomidan xonalarning markaziy kismidan ostadonlar siniklari kalla suyagi va xo'jalik sopollarining koldiqlarini uchratish mumkin. Bir kancha ostadonlarning bo'lagi va kalla suyaklarini 5№ xonada uchratish mumkin, ularning ba'zilar yuqori qatlamlarda 12 asr sopollariga aralashgan holda uchratish

⁸⁴Сухарев И.А. Отчет по раскопкам зороастрийских наусов городища Кафыркала // Архив ГМИКИУ, Д. 568. -Самарканд, 1938. -С. 6-10.

mumkin. Ko'plab ostadonlar 6. № topilgan bo'lib, ularni kalla suyagining ko'pi taxminnan 1-2 metirdan to 3 metr chuqurlikgacha tushib qolgan. Bu shundan dalolat beradiki ostadonlar ikkinchi qavatning buzulib ketganligidan pastga tushib qolganligini ifodalaydi. G.V. Shishkinaning ta'kidlashicha, islom dinining kirib kelishi bilan bu yerlarni aholi tashlab ketgan va ossuariysaqlanadigan joyga aylangan. Olib borilgan tadqiqotlar davomida ostadonlar tug'ri to'rt burchak shaklda ba'zan burchagi dumalok shakllilarni ham uchratish mumkin. Ostadonlarning faqat oldi tomoni bezatilgan, orqa va yon tomonlari esa ahyoon-ahyonda kulf teshigi yoki tor teshik qilingan. Ularning tarkibida dresba va somonni uchratish mumkin, oddiy shaklda naqsh qilingan.

IV BOB. KOFIRQAL'A YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR DAVOMIDA QURILISH MADANIYATI SOHASIDA QO'LGA KIRITILGAN MUHIM NATIJALAR

4.1 Kofirqal'a turar joylari

Kofirqal'adagi arxeologik tadqiqotlar davomida bir-biriga ulanib ketgan turar joy xonalari ochilgan. Ularning qurilishida paxsa va xom g'ishtdan keng

foydalanilgan. Xususan, G.V.Shishkina tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida bir necha xonalar ochib o'rganilgan. Bu xonalar to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, markaziy qismi yaxshi saqlangan. Ichki devori to'liq saqlanmagan, uning shimoliy-g'arbiy, janubiy-g'arbiy tomoni butunlay buzilib ketgan. G.V. Shishkina tadqiqotlar natijasida bino planini ikki guruhga ajaratadi:birinchi guruh-binoning markaziy qismi bo'lib, bu qism kvadrat shaklda joylashgan 10 ta xonadan iborat. Mazkur guruh umumiy maydoni 18,3 metrni tashkil etadi.Ikkinchi guruh, 11 ta xonalardan iborat bo'lib, markaziy qismni uch tomonini tashqari tomonidan o'rab olgan.Ikki qism faqatgina tor koridor orqali ajralib turadi. Birinchi guruh xona devorlari qalinligi 2 m bo'lgan holda,ikkinchi guruh xona devorlari qalinligi 1-1,5 m ni tashkil etgan. Markaziy qismi xonalari 3,3x3,3 m l o'lchamdagi kvadrat shaklida bo'lib, xonalarning eshigi burchak tomondan qo'yilgan. Ikkita katta xonaning o'lchami 7x2,2 m l va 7,5x3 m l ni tashkil etadi. G.V. Shishkinaning ta'kidlashicha, yodgorlik ikki qavatdan iborat bo'lib, ikkinchi qavat devori 0,5 m balandlikda saqlanib qolgan. Ikkinchi qavat markaziy bino ustiga qurilgan. Shishkinaning ta'kidlashicha, markaziy xonalar dehqonning qo'rg'oni bo'lgan. Uning atrofida esa yordamchi xonalar joylashgan.

Yodgorlik markazida joylashgan binoda olib borilgan tadqiqotlar davomida ichki xonalar devorlarida tor teshik qoldiqlari aniqlangan. Bu teshiklar plan asosida devorda va pol ostida joylashtirilgan. Teshik atrofiga singan g'ishtdan terib chiqilgan. Teshikning o'lchami eni 0,2 m balandligi 0,5 m dan 1 metrgacha boradi. Xonalarning ichki qismida jami 46 ta shunday teshiklarni uchratish mumkin. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, bu teshiklardanqish mavsumida-isitishda, yoz mavsumida esa-shamollatishda foydalanilgan. 11-chi xonada xum mavjud bo'lib, u xo'jalik xonasi vazifasini bajargan. Asosan qurilishda paxsa va g'ishtdan foydalanilgan. Ba'zi g'ishtlarning tarkibida somon

uchramaydi. Xonalardan aholi tashlab ketgandan so'ng, nauslar saqlashda foydalanilgan degan xulosani beradi. Qazishmalar davomida sopol buyumlari, haykalchalar (5 ta haykallar topilgan bo'lib, ularda otlar, tuya, va ayol tasvirlangan) va temir kuluch topilgan,. Ayol tasviri tushirilgan terakota haykallar tashqarisiga qizil rang berilgan bo'lib, ularning kattaligi 13 sm ni tashkil etadi. Markaziy xonalardan 1, 3, 6, va 9-xonalardan ostadon siniqlari odamning suyaklari, xo'jalik idishlari topilgan. Bir qancha ostadonlar butun holda, ichidagi suyaklaribilan saqlangan. Ostadonlar tarkibiga mayda shag'al tosh va somon qo'shilgan bo'lib, ular o'rtacha olovda pishirilgan. 5-xonaning yuqori qatlamlarida XII asr sopollarini ham uchratish mumkin. Shishkina yodgorlikning qurilish plani Aultepaga o'xshashligini ta'kidlaydi⁸⁶.

Yodgorlikning ark qismida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida arkdan kirish darvozasi, ayvon va bir biriga ulanib ketgan xonalar ochib o'rganildi. Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha arkning janubiy sharqiy va janubiy-g'arbiy tamoni ustun qayt etilgan. Ular janubiy sharqda 12ta garbida esa 5ta. Ustunlarning tagi g'isht bo'lib, uning yuqorisi gorizontal yog'och bruss qo'yilgan. Ustun yog'ochdan bo'lganligin ifodalaydi Bundan tashqari bir qancha xonalar ochilgan. Xususan, №1-Bino shimoli-g'arbiy burchakda joylashgan bo'lib, to'g'ri burchakli shakldan iborat. Eni 3,1 m, uzunligi 4,5 m. №5 binoning nisbatan to'liq saqlangan devori – shimoli-g'arbiy devoridir. №2 binoning yaxshi saqlangan devori esa janubi-g'arbiy devoridir. Binoning barcha devorlari paxsa blokdan qurilgan. №1 binodan 25,5 x 3 x ? sm o'lchamdagi pishirilgan g'isht bo'laklari topilgan. Bundan ko'rinishicha, g'isht yodgorlikda insonlar istiqomat qilgan oxirgi davr (bino nazarda tutilgan) bilan bog'liqdir.

Yodgorlikning ark qismida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida ayvon, bir qancha binolar ochib o'rganilgan. Ayniqsa ikkinchi qurulish davriga

⁸⁶Шишкина Г.В., Раннесредневековая сельская усадба под Самаркандом. // ИМКУ. Вып. 2. -Т., 1961. -С.192-222

Xususan, №1 bino uchta yo'lakchadan iborat. Birinchi yo'lak saroydan – chiqish uchun xizmat qilgan va kengligi 50 sm. Bunga qarshi bo'lgan yana bir yo'lakning kengligi 50 sm va bu bino bilan qo'shilib ketadi. Ya'ni 4- binoga ham borib taqaladi. 1- bino o'z navbatida 2 va 5 - binolardan chiqishga xizmat qilgan. Loy g'isht qoldiqlari shundan dalolat beradiki, 1- bino keyinchalik xo'jalik xonasi vazifasini bajargan⁸⁷.

№2-Bino. Bu 1-binoning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, yo'lak bilan bog'langan. To'g'ri burchakli, o'lchami 3,30x5,65m. Barcha devorlari paxsa bloklardan qurilgan. Uchida devor (janubi – sharqidan tashqari) pastki qismida supa mavjuddir. Devorlarni yiqilish va boshqa xavfdan saqlagan. Supa chetlariga past g'ishtlar bilan qator qilib terilgan. Past g'isht va devor orasi, ularning yer qismi mustahkam zichlangan. Devor yuqori qismi somonli loy bilan suvoq qilingan. Suvoq qalin va qattiqdir. Janubi-g'arbiy supaning kengligi 75 sm, balandligi 50 sm dan iborat. Shimoli-g'arbiy devorning supa qismining kengligi 150 sm, balandligi 50-55 sm. Supaning yuqori va en qismi somonli loy bilan qalin suvoq qilingan. Barcha ko'rinishga ko'ra, supa dam olishga tayyorlangan. Janubiy-g'arbiy va shimoli-g'arbiy supaning yaqin qismida, 40-55 sm.li unchalik katta bo'lmagan yama mavjud. Bu yerdagi supaning yuqori qismida 15-25 sm.lik yama – chuqurlik bo'lib, tangalar saqlangan 1321 nusxadagi tangachalar topilib, ularning ko'pchiligi yaxshi saqlanganligi ma'lum bo'ldi. Tangashunos A.X.Otaxo'jayev xulosasiga asosan, tanganlarni uch guruhga bo'lish mumkin: Arab – sasoniy dirhamlari, ummaviylar dirhamlari, abbosiylar dirhamlari.

Eng dastlabki tangalar 25/645 – yillar, keyingisi 190/805 – 806 yillarga tegishlidir. Tangalar Xuroson, Eronning shimoliy va sharqiy rayonlari va Shoshda zarb qilingan. Shunisi qiziqarlilik, aynan Samarqandda zarb qilingan

⁸⁷Бердимуратов А.Э., Джоржети Д.,Мантеллине С. Археологические исследования на городище Кафиркала в 2006-2007 годах // Археологические исследования в Узбекистане 2006-2007. Вып. 6, -Т. 2009 –С. 65

tangalar ham mavjud. Bronza tangalar diametri (aylanasi) 19 mm.bo'lib, aylana kvadrat shaklidan iborat. Ular milodiy VIII asrga oiddir. Binoning saqlab qolingani janubi-sharqiy devorining balandligi 1 m.ga yaqin, shimoli-g'arbiy devor esa, 3,14 m. ga. yaqin. Binoning ikki devori ham paxsadan qilingan. Janubi-g'arbiy devor ikki qismi supadan balandligi 105 sm, supa pastki qismi chuqurligi 45-50 sm, kengligi 85 sm. To'g'ri burchakli shakldagi ayrim qismlar 165 sm.ni tashkil qiladi. Barcha qismlar suvoq qilib chiqilgan. Suvoq qismlariga qarab, oq rangga buyalganligini bilib olamiz. Devorning ayrim bo'laklari xo'jalik vazifasini bajargan. Tokchalarning kengligi 85 sm.gacha bo'lgan. Bu tokchalar qadimgi O'rta Osiyo xalqlarida keng tarqalgan. Ushbu tokchalarga sopol, shisha yoki daraxtdan qilingan turli xil idishlar qo'yilgan.

№3-Bino. Uni faqat shartli ravishda bino deb atash mumkin. Ikki yo'lak, koridor, yodgorlikning minorasi va turar tokchalarni qamrab oladi. Ochilgan yo'lak – 7,5 m. yo'lak (koridor) janubi-g'arbiy devorga oid bo'lib, bu bilan bir vaqtda Kofirqal'aning mudofaa devori bo'lib ham hisoblangan.

№4-Bino. Bu ham shartli holda bino deb nomlanib, minora (tepalik) va 5-bino o'rtasida yo'lak bo'lib hisoblangan. Uzunligi 2 m, kengligi – 1,5 m. Ushbu yo'lakning tom qismi loy, g'isht bilan berkitilgan. G'isht qoldiqlari bundan guvohlik beradi. G'isht yemirilgan bo'lib, o'lchami 60x26 – 27x9 sm; 60x26x8,5 sm; 56x27x9 sm; 56x28x9 sm.

№5-Bino. Qazib – o'rganilgan hududning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan. Ammo bu hali to'liq ochilgan emas. Ochib o'rganilgan qismi uzun yo'lak shaklida bo'lib, minora – tepalik bilan bog'lanadi. Ochilgan qismning o'lchami 3,25x10 m.ni tashkil qiladi. Binoning paxsa devori yuqori qismi xom (loy) g'isht bilan qoplangan⁸⁸. G'ishtlar tagida loy bilan qalin qilib terilgan va yuqori qismi

⁸⁸БердимуратовА.Э., ДжоржетиД.,МантеллинеС.Археологические исследования на городище Кафиркала в 2006-2007 годах // Археологические исследования в Узбекистане 2006-2007. Вып6, -Т., 2009 –С. 66

suvoq qilingan. G'ishtning qalinligi 35 sm. Binoning ochilmagan qismi ham suvoq qilingan. Ammo yemirilgan. Xom g'ishtlar bo'laklari saqlab qilingan. Binoning shimoli-g'arbiy devori umumiy mudofaa vazifasini bajargan. Hududda turli xil bo'laklar topilgan. Devorning kengligi 3,2 – 3,4 m. Aynan, ushbu devor Kofirqal'aning tashqi qismi hisoblanadi. So'nggi vaqtda asosiy qatlami yoqib yuborilgan. Yarim aylana shaklida qurilgan.

6-Bino. 3 – 5 binolar bilan tutashgan. Yarim aylana shaklda qurilgan bo'lib, diametri 3,5 m maishiy xonalar qatlami yonib ketganligi sababli, ularning asosiy vazifasi nima ekanligini aniqlash qiyin. Ba'zi qatlamlarning kengligi 50 sm bo'lib, asosan janubi-sharqiy qismi ro'yxatga olingan. Ushbu bino inshootlari majmuasi bilan minora vazifasini bajargan. Minora qurilishi uchun 6 – bino strategik qulay joyda joylashgan qazuv ishlari va qidiruv natijalari shuni ko'rsatadiki, janubi-g'arbiy qismdagi ushbu minora murakkab reja asosida qurilgan. To'g'ri, ularning mudofaa vazifasini bajarganligi rad qilinmaydi. Hozircha funksional tayinlanishi masalasi hal etilgan emas. (o'z yechimini topmagan) Shuni qo'shimcha qilish mumkinki, Samarqand sug'dida VI asr boshlariga kelib, to'g'ri burchakli minora o'rniga aylana shaklidagi minoralar qurila boshlandi. Qurilish ashyolarining qoldiqlari birinchi va ikkinchi qurilish obyektiga oiddir. Ko'p sonli yamalar (quduqlar) ham aniqlangan. Karkas shaklidagi turar joylar ularning asosiy tarkibi bo'lib hisoblanadi. 12 – chuqurlik aynan bunga oiddir. Qolgan chuqurliklar xususida fikr bildirish qiyindir. Yerdan to'g'ri burchakli ko'rinishdagi makon, turar-joylar bo'lib, ularning o'lchami 65x65 sm. Bundan uzoq bo'lmagan joyda devor qoldiqlari ham topib o'rganilgan. Bu ilk davrlarga tegishli bo'lib hisoblanadi. Birinchi joy (aniqlangan) to'g'ri burchakli ko'rinishda, o'lchami 20x25 sm., ikkinchisining o'lchami 25x50 sm. Maishiy, uy-ro'zg'or vazifasini bajaruvchi o'choq va boshqa joylar ham aniqlangan. Ba'zilarining vazifalari, nima maqsadda, qanday holda

qurilganligi ma'lum emas. Qazish joyining g'arbiy burchagi, asosiy devor bo'lib, arka olib boradigan yo'lak hisoblangan. Kengligi 105 sm. Bu yerda (aniqlanishicha) uncha katta bo'lmagan eshik bo'lib, arkning aholi yashaydigan qismi bilan tutashgan. Bino darvozasi ham bu bilan bog'langan. Devorlarning qoldiqlari hozirga qadar saqlab qolingan. Bu bino devorlari farq qiluvchi xususiyatga ega bo'lib, suvoq qilingan. Amorf xususiyati diqqatga sazovor. Ushbu qurilish shimoli-g'arb va janubi-sharqqa qadar davom etgan. Saqlanib qolgan yuqori qismi 45 – 65 sm. G'ishtlarning o'lchami: 35x27x7; 37x27x8 sm. 2006 yil sharqiy sektorda ham qazuv ishlari olib borilgan. Qurilish me'moriy qoldiqlarning ahamiyati ham yuqori bo'lib, ular arab va somoniylar davri bilan baholanadi.

2007 yil yana ikkita guruh arxeologlar qazuv ishlari olib borishdi. Sharqiy va g'arbiy qismlar. G'arbiy sektordagi binoning bir qismi, qal'a devorlari ochib o'rganilgan. Shuningdek, yana bir bino yoki ayvon topilib u sharqiy tarafida joylashgan.

7-Bino. G'arbiy sektor va qal'a devorining sharqiy qismidagi joylashgan qism (7-bino) o'rganildi. Uzunligi 5,7 m (to'liq qazilmagan), kengligi esa 2,8-3 m. Bino sopol buyumlar va xom g'isht bilan to'ldirilgan. Binoning 90-sm chuqurlida pol qayt etilgan bo'lib, pol uchun sopol plitkalardan qilingan. 7 dona bulak plitkaning o'lchami: 23x15 (?)x2,6-3; 23x16 (?) x 2,6-3; 13 (?) x 2,6 sm. Polning pastki qismida yirik shakldagi xom g'ishtlar mavjud. O'lchami 50x25x8 – 9; 55x26x19 sm. qal'a devorining kengligi 1,8 m va uzunligi 21,5 m. Keyingi qazuv ishlarida yana bir qator g'ishtlarning qoldiqlari topildi. Qatlam ichida paxsa blok yaxshi saqlangan. Ba'zilar qor, yomg'ir natijasida o'z shakli, tuzilishini yo'qotgan. Binoning ayrim qismlari bush holatdi. Devorlar aylana qovariq shakldagi g'ishtlar bilan terilgan. Devorlar joylashuvi parallel holatda. G'ishtlarning standart (me'yoriy) o'lchami: 54x26 – 28x9 – 10 sm. G'ishtlar uzunasiga yotiq

holda terilgan. Binodagi sharqiy tomonga o'tish yo'lakchasi kengligi 1,2 m. Janubiy devordan 3 m masofadagi oraliqda joylashgan.

8-Bino. 7-binoning sharqiy qismida joylashgan. Uni shakliga ko'ra, ayvon deb atash mumkin. Binoning yuqori qismi xom g'isht va sopol bo'lakchalari bilan to'ldirilgan. Paxsa devorning balandligi 0,95 – 1,1 m. O'rta pastki qismida tandir o'rnatilgan. Uning o'lchami: balandligi 60 sm, diametri 53 sm, pastki qismi qalinligi 3 – 4 sm.

G'arbiy sektordagi qazuv ishlari. Ushbu sektorda joylashgan qal'a devorlari ikkiyoqlama o'ralgan. Qal'a devori pastki qismi, aynan eng qalin qismi 3,25 m bo'lib, paxsa va xom g'ishtdan qo'rilgan. Ammo paxsa va g'ishtining tartib bilan urilgan va tortilganligi aytish mushkul (Bunda qo'shilgan joy nazarda tutilgan).

Alohida qatori esa g'isht gorizontal – uzunasiga yotqizilgan g'ishtlar orasi zich bo'lib, o'lchami 57x31 – 32-34 sm. Loy yashil rangli ko'rinish hosil qilgan. Qal'a devorlarining g'arbiy qismida yana 4 ta bino ochib o'rganildi. «1-bino (2x4,35 m) sektorning shimoliy tarafida bo'lib, to'g'ri burchakli ikkita yo'lakchasi bilan: shimoliy va g'arbiy devorlari⁸⁹. Bo'zilgan devor kenligi 4 va 1,5 m. Devornig saqlanib qolgan qismining balandligi – 0,8 m. – 1,5 m. qazuv ishlari 2 m., 2,5 metrgacha chuqurlikda olib borildi. Birinchi polqismi chuqurligi 0,9 m., ikkinchisi – 2,61 m. Pol ostida ham qatlamlar borligi ma'lum bo'ldi.

2-Bino. №2 (9,75 x 3,5 m). Yuqorida aytilgandek, janubiy qismda joylashgan g'arbiy devor qalinligi 1,4 m, janubiy devori esa 1,25 m. Janubiy devor o'tish yo'lagi kengligi – 1,25 m. 2-bino ayvon ko'rinishida qo'rilgan. Bu yerda olovxona (pech) qurilgan bo'lib, ayvon shaklida, diametri 1 m, saqlangan qismi balandligi - 40 sm. Loy bilan yopilgan. Bloklarning ikki qismi yaxshi saqlangan.

№3-bino. 2-binoning janubiy qismida joylashgan bo'lib, o'tish yo'lagi bilan bog'langan janubiy qismi yemirilib, buzilgan. Saqlangan qismi uzunligi 2 – 2,5

⁸⁹БердимуратовА.Э, ДжоржетиД,МантеллинеС.Археологические исследования на городище Кафиркала в 2006-2007 годах // Археологические исследования в Узбекистане 2006-2007. Вып 6, -Т., 2009–С. 69-70

m.

№4-bino. 1-binoning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, janubiy devorining g'arbiy qismi buzilgan holatda saqlangan qismi uzunligi 5 m, qalinligi 0,9 m.

№5-bino. 1-2 binolarning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, sharqiy qal'a devori burchak shaklida. Yer qismi (pol) chuqurligi 0,9 m. Sopol plitkalardan foydalanilgan. Sopol bo'laklarining o'lchami: 25x28x2,6 – 3 sm; 15x23x2,6 - 3 sm. Janubiy devor uzunligi 1,25 m. shimoliy qismda ochilgan janubi-g'arbiy burchak uzunligi 3,78 m.

№6-bino. 5-bino janubida va yo'lak bilan tutashgan o'lchami: uzunligi 3,25 m, kengligi – 1,6 m. Pol (yer) qismining ikkinchi qavatidan sopol bo'lak ya'ni plitkalar topilgan.

№7-bino. 6-bino janubida.

2006 va 2007 yillardagi arxeologik qazuv ishlari asosiy qismda olib borildi. Bu tadqiqotlar davomida Kofirqal'a binolari haqidagi ko'pgina masalalar oydinlashdi. Ichki binolarning qoldiqlari va boshqa holatlar yuqorida aytib o'tildi. Ko'plab tadqiqotchilar ushbu qal'a xuxudining saqlanib qolganligini quruq iqlim va seysmik faollik yaxshi ekanligi bilan bog'laydilar (Boymatov, 2005.S. 149-154).

3,4, 5 va 6-binolar g'arbiy sektorda bo'lib, 7-bino esa sharqiy sektorda joylashgan. Binolarning qurilishi binoning o'z vazifasiga ko'ra o'rganilgan. Bundan ko'rinadiki, binolarning ayrimlari ayvon shaklida. Ark olib borilgan

4.2 Kofirqal'a mudofaa tizimi

Qadimdan shaharni himoya qilish uchun uning atrofi mudofaa devori bilan o'rab olingan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo buyuk kushonlar saltanati davrida shahar madaniyati gullab yashnadi. Birgina Surxondaryo vohasidan bu davrga oid 120 ta yodgorlik arxeologik jihatdan o'rganilgan bo'lib tadqiqotlar

hanuzgacha davom etib kelayotir.⁹⁰Kushonlar davrida ham shahar va qishloq-qo'rg'onlar alohida mudofaa devorlari bilan o'rab olingan.O'rab olingan mudofaa devorlari paxsa va xom g'ishtdan qilinib, devor tashqi tomonidan handaklar qazilgan. G'ishtlarining o'lchamlari kvadrat 32x32x10,40x40x10sm 44x44x11sm o'lchamda bo'ladi.Mudofaa devorining minoralari o'zaro koridor bilan bog'langan bo'lib, bu koridorlar urush paytida mustahkam himoya uchun qo'l kelgan. Tashqi devorda nayza o'qi ko'rinishda shinaklar bor. Ularning balandligi 40sm,eni esa 20sm tashkil etadi⁹¹.

Kushonlar davlatining inqirozga yuz tutishi natijasida davlat mayda davlatchalarga bo'linib ketdi.Ilk o'rta asrlarda ayniqsa qurulishda ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Kvadrat g'ishtlarni o'rniga 1:2 o'lchamli g'ishtlar paydo bo'ldi⁹².

Ilk o'rda asr Samarqand hududida paxsa va anashu o'lchamda g'ishtlardan keng foydalangan holda kala qo'rg'on va shaharlar mudofaa tizimini mustahkamlashda keng foydalanib kelgani arxeologik tadqiqotlar natijasidan ma'lum.

Kofirqal'a ham o'zining mudofaa tizimiga ega bo'lib,devor bilan shaharni o'rab olingan.Yodgorlik 16 gk maydonni egallagan bo'lib, ark, shahristonva rabot qisimlariga bo'linadi. Kofirqal'aning shahristoni va arki to'g'ri to'rt burak shaklda bo'lib,ularning tomonlari 360m tashkil etadi. Ark shaharning shimoliy-sharqiy tomonida joylashgan bo'lib, kvadrat shaklli (76x76m) devorining balandligi 20m⁹³.

Kofirqal'a arkini shahardan ajratib turish uchun xandak qilingan bo'lib, u butun arkni qariyib o'rab olgan. Ba'zi joylarda xandakning kenligi 57 chuqurligi

⁹⁰ Сандибоев А.Н.Афсоналарда давлат тарихинининг ўрганилиши.Самаркандуниверситети.№8 (1085) 2008 йил 26ет.

⁹¹СандибоевА.Н Кўхна Термиз ёдгорлиги хусусида. Ўзбекистон тарихи асрлар силсиласида.-С., 2010. Б. 17

⁹² Хмельницкий Между кушанами и арабами. -Берлин-Рига. 2000 С., 34.

⁹³БердимуродовА.Э. Мантеллини С., Матбабаев Б.(Ўзбекистан, Италия)Кафиркала загородняя резиденсия Самаркандских правителей.//Самарканднинг умумбашарий маданияний тараққиёт тарихида тутганурни.-Тошкент- Самарканд. 2007. –С. 73-77.

5m. Undan tashqari devor va minoralar bilan o'rab olingan. Ba'zan xandaklar 27m bo'lib arning janub tomoniga qarab torayib 18m tashkil etadi. Manashu janubiy g'arbiy burchagida chuqurlik bor. A. Berdimurodovning tahmin kilishicha shu yerda ko'tarilib tushiriladigan xandak ustiga qo'yilgan, shaharni ark bilan bog'laydigan ko'pri bo'lgan⁹⁴.

Yodgorlikning shimoliy-sharqda tomoni Darg'om kanali bilan o'rab olingan bo'lib, ark tabiiy tepalikning ustiga qurilgan. Arkning ustida shahar yaqqol ko'rinib turadi. Uning janubiy tomonidan Samarqand tog' oldi tomoniga ya'ni, Shahrisabz tomoniga asosiy strategik ahamiyatli joyda joylashgan. Arkning ustidan shahar yaqqol ko'rinib turadi. Shaharni himoya kilish uchun yana bir tadbir, shahar atrofida juda ko'plab qasrlar, qalalar va qorovul tepalar bunyod etilgan. Bu albatta shaharni himoya tizimini naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi. Undan tashqari yodgorlikning ark, shahriston va rabot qismlari mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Bugungi kungacha faqat ark qismi mudofaa devori ochibo'rganilgan. Devor pahsa va xom g'ishtdan kilingan bo'lib, ularning qalinligi 1,5-2m tashkil etadi. Undan tashqari pahsa va xom g'ishtdan arkning to'rt tomoniga qorovul minoralari joylashtirilgan. Bu minoralar to'rt burchak shaklda bo'lib, tashqi tomoniga o'q otish uchun shinaklar joylashtirilgan. Shinaklar devorlarga shahmat tartibida joylashtirilgan bo'lib, undan tizzalab va tikka to'rib o'q otishga mo'ljallangan. Ular to'g'ri to'rt burchak shaklda bo'lib kengligi 15sm balanligi esa 30 sm tashkil etadi. Shinaklar ikki qator joylashtirilgan bo'lib ularning yuqori qatori pol sathidan 1,50m balandlikda joylashtirilalgan. Minora uch qavatli shaklda bo'lib bizgacha fakat uning ikki qavatigina yetib kelgan. Ustgi qismi xom g'ishtdan gumbazsimon qilib qurilgan. Arkning to'rt burchagi minoralar o'zoro koridor bilan bog'langan bo'lib, bu

⁹⁴Бердимуродов А.Э.,Энрико М.,Пардаев. М.Х.,Суюнов С.(Узбекистан, Италия)Научный отчет Кафиркалинской экспедиции за 2001г., -С.5-6

koridorlar urush paytida mustahkam himoya uchun qo'l kelgan. Koridorning eni 1,5m tashkil etadi.⁹⁵

Kofirqal'a mudofa tizimi mustahkam qilingan bo'lib, u janubiy sug'dning buyuk ipak yo'lida joylashgan. Shaharni himoya qilish uchun xizmat qilgan. Shahriston va rabot qismlar ham devor bilan o'ralgan bo'lib ular arxeologik tadqiqotlar bu yorda olib borishni talab etadi.

Xulosa

Kofirqal'a yodgorligini o'rganish ilk o'rta asr Markaziy Sug'd tarixini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Chunki yodgorlikning geografik joylashuvi uning o'z davrida ma'lum bir siyosiy rol o'ynaganligini ko'rsatadi. Ya'ni, Kofirqal'a Darg'om bo'yida joylashib Samarqanddan Panjikent tomon, Samarqanddan Janubiy Sug'd tomon boruvchi muhim savdo yo'lida joylashgan. Shu sababli u strategik ahamiyatga ega bo'lib, poytaxt Samarqandni janubiy

⁹⁵Бердимуродов А.Э., Энрико М., Пардаев М.Х., Суюнов С. (Узбекистан, Италия) Научный отчет Кафиркалинской экспедиции за 2001 год.-С., 2002.-С11-16

tomondan keladigan xavf-xatarlardan himoya qilib ham turgan. Bundan tashqari Kofirqal'a muhim adminstrativ ahamiyatga ham ega edi. Buni yodgorlikda olib borilgan qazishma ishlari jarayonida topilgan ko'plab siyosiy hujjatlarga birlashtirilgan bullalar tasdiqlaydi. Demak, Kofirqal'a Markaziy Sug'd hukmdorlarining tashqi aloqalarida o'ziga xos rol o'ynagan markaz bo'lgan.

Kofirqal'ada olib borilgan qazishmalar jarayonida topilgan sopol idish siniqlari, turar joy binolarining tuzilish kompleksi ham bu yerda ko'proq yuqori tabaqa vakillari istiqomat qilganligini ko'rsatadi. Ya'ni yuqorida keltirgan Kofirqalaning muhim adminstrativ markaz bo'lganligi va u yerda asosan Markaziy Sug'dning tashqi aloqalarini olib boruvchi amaldorlar istiqomat qilishgan, degan fikrimizni tasdiqlaydi.

Kofirqal'a yodgorligida mustaqillikgacha va mustaqillik yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va tadqiqotlar jarayonida qo'lga kiritilgan arxeologik ashyolar hamda ularning ilmiy tahlili asosida quyidagi fikrlarni bildirish mumkin.

Birinchidan, Kofirqal'a iqtisodiy jihatdan jumladan, hunarmandchilik yuqori darajada rivojlangan shahar bo'lgan. Xususan, ushbu fikr bu yerda aniqlangan xumdon va qazishmalar jarayonida aniqlangan sopolllar misolida o'z tasdig'ini topmoqda. Ayni vaqtda yodgorlikda aniqlangan kulolchilik mahsulotlari yasash uslubi, naksh berish texnikasi hamda xumdonlarning tuzilishi jihatdan Afrosiyob, Panjikent, Choch, Jizzax va Naxshabda aniqlangan sopolllarga o'zaro yaqinligi kuzatilsada, uning o'ziga xos lokal xususiyatlari mavjudligi ham kuzatildi. Jumladan, bu xolat sopolllarning tarkibi, va pishirilishida ko'proq kuzatiladi, yani Kofirqal'a sopolllari slyudaga boyligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchidan, yodgorlikdan topilgan 500 yaqin bullalar yodgorlik Sug'd mintaqasida muhim siyosiy markaz bo'lganligidan dalolat beradi. Yani, bullalarida mongoloid, yevropoid ayrim hollarda grek qiyofalarini aks etishi va bu

tasvirlargi shaxslar podsho yoki amaldor sifatida qayd etilishi hamda bullalar aksariyat xollarda muhim xujjatlar uchun tamg'a sifatida ishlatilganligi yuqorida qayd etilgan fikrimizni tasdiqlaydi.

Uchinchidan, Kofirqal'a yirik zardo'shtiylik markazi ham hisoblangan. Xususan, bu yerda topilgan ostadonlar, nauslar va diniy marosimlarda qo'llanilgan buyumlarning aniqlanishi fikrimiz dalilidir.

To'rtinchidan, yodgorlik ilk o'rta aslar shaharlariga oid barcha arxitekturaviy qirralari-ark, shaxriston, mudofaa tizimi, turar-joy qoldiqlarini o'zida jamlagan bo'lib, bularning barchasi Kofirqal'a markaziy Sug'dning yirik shaharlaridan bo'lganligidan dalolat beradi. Shu boisdan uning mudofaa tizimiga alohida ahamiyat berilgan. Shaharni o'rab turgan qudratli mudofaa devorlari kengligi 57 m.gacha yetuvchi handaklar bilan o'ralgan. Bunday keng handaklar shahar fortifikasiya tizimini yanada qudratli darajaga olib chiqqan.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarni umumlashtirgan xolda Kofirqal'a ilk o'rta asrlarda xunarmandchilik, savdo sotiq rivojlangan iqtisodiy makon ham siyosiy markaz bo'lgan degan xulosani bildirish mumkin. Ayni vaqtda bunday yirik iqtisodiy va siyosiy markaz o'zining joylashuviga ko'ra yozma manbalarda tilga olingan Rivdod o'rnida bo'lgan deb taxmin qilishimiz mumkin. Zero, shaxarning tuzilishi va joylashuvi Tali Barzudan ancha qulay joyda joylashgan.

Umuman olganda, Kofirqal'a yodgorligida arxeologik qazishma ishlarini davom ettirilishi uning nafaqat Sug'd, balki yurtimiz tarixida tutgan o'rnini yanada to'liq anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – Toshkent, 1999.

Abdullayev K. Berdimurodov A. E. Antichnyye syujety v rannesrednevekovoygliptike Sogda po bullam gorodiща Кафыркала pod Samarkandom// **Mat.po akt.** -S., 2005.

Axrarov I.A., Usmanona Z.I. Keramicheskaya pech pozdneantichno vremeni //YuTAKE. Вып.XVII. -T.,19

Beleniski A.M., Bentovich I.B., Bolshakov O.G. Srednevekovyy gorod Sredney Azii.-L., 1973.

- Beleniskiy A. M. O raskopkax gorodiща drevnego Penjiyenta v 1961 g Arxeologicheskiye raboty v Tajikistane. Выр. IX. –D., 1964.
- Bentovich I.B. Keramika verxnego sloya Penjikenta (VII-VIII vv.)//MIA. № 124.-M-L.,1964.
- Bentovich I.B. Keramika Penjikenta//MIA. №37. -M-L.,
- Berdimuradov A.E, Djorjeti D, Mantelline S. Arxeologicheskiye issledovaniya na gorodiщye Kafirkala v 2006-2007 godax // Arxeologicheskiye issledovaniya v Uzbekistane 2006-2007g. Выр. 6. –T., 2009
- Berdimuradov A.E., Babayarov G., Kubatin A. Novaya interpretasiya nekotoryx bull iz Kafirkaly. Arxeologiya Uzbekistana. №1(4). -S., 2012.
- Berdimuradov A.E., Mengi Enriko. Nauchnyy otchet Kafirkalinskoy ekspedicii za 2001g.-Samarkand 2002g
- Berdimuradov A.E., Samibayev M.K. Keramicheskiye komplekсы iz novogo sogdiyskogo xrama Djartepa II // IMKU, Выр. 27. –T., 1996.
- Berdimuradov A.E., Matbabayev B.X., Mantellini S., Rondelli B. Arxeologicheskiye raskopki na gorodiщye Kafyr-kala // Arxeologicheskiye issledovaniya v Uzbekistane 2004-2005 g .Выр. 5, T., 2006.
- Berdimurodov A.E. Mantellini S., Matbabayev B. (Uzbekistan, Italiya) Kafirkala zagorodnaya rezidensiya Samarkandskix praviteley// Samarqandning umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o’rni.–Toshkent- Samarkand 2007.;
- Berdimurodov A.E., Askarov K.K. Kofirqalaning mudofaa usullari va tarmoklari. - Samarkand 1992;
- Berdimurodov A.E., Pardayev M.X., Zamok Kingirtepa//IMKU. Выр. 22. -T., 1988.
- Berdimurodov A.E., Pardayev. M.X., Enriko M., Bernardo R., Mantellin S. (Uzbekistan, Italiya) Nauchnyy otchet Kafir-kalinskoy ekspedicii za 2002 god. - S., 2003.
- Berdimurodov A.E., Enriko M., Pardayev M.X., Suyunov S. (Uzbekistan, Italiya) Nauchnyy otchet Kafirkalinskoy ekspedicii za 2001god -S. 2002:

- Berdimurodov A.E., Enriko M., Pardayev. M.X., Suyunov S. (Uzbekistan, Italiya) Nauchnyy otchet Kafirkalinskoy ekspeditsii za 2001g.,
- Быкина G.A. Srednyaya Aziya i Dalniy Vostok v epokhu srednevekovya. -M., 1999.
- Buryakov Yu.F., Askarov K.K. K tipologii selskix poseleniy rannesrednevekovogo Sogda (po materialam yujnykh rayonov Samarkandskogo oazisa) IMKU. Вып 28. –S., 1997
- Buryakova E.F. Poseleniye Lolazor predshesvennik goroda topografii drevnogo i srednevekovogo Samarkanda. –Samarkand. –T., 1981.
- Быкина G.A. Yugo-Zapadnaya v pervoy polovine I tysyacheletiya nashey ery.-M. 1982
- Grigoryev G.V. K voprosu o khudozhestvennykh remesle domusulmanskogo Sogda // KSIIMK., № 12. –M-L., 1946.
- Grigoryev G. V. Gorodishche Tali-Barzu.-1940.
- Grigoryev G.V. Tali-Barzu kak pamyatnik domusulmanskogo Sogda // KSIIMK., XIII. –M-L., 1946.
- Grigoryev G.V. Poseleniya drevnogo Sogda (Po dannym issledovaniya gorodishch Samarkandskogo rayona) KSIIMK. № 12. M-L., 1940;
- Gulyamov Ya.G., Islamov U., Askarov A. Pervobytnaya kultura i vozniknoveniye oroshayemogo zemledeliya v nizovyax Zerafshana. -Tashkent, 'Fan'. 1966.
- Ivaniskiy I.D. Saratepe-2-poseleniye keramistov serediny Itys. do n. e. pod Samarkandom// IMKU. Вып. 26. –T., 1992.
- Isakov A. Sarazm (k voprosu stanovleniya ranneye zemledelskoy kultury Zerafshanskoy doliny) (Raskopke 1977-1983 gg.) –Dushanbe: Donish, 1991
- Isamiddinov M.X., Xasanov M. X. Istoriya drevnogo i srednevekovogo keramicheskogo proizvodstva Naxshaba -T., 2000.
- Kabanov C.K. Kultura selskix poseleniy Yujnogo Sogda III -V vv. -T., 1981.
- Lebedova T.I., Keramika Afrasiaba V-Vvv // IMKU. Вып. 23 -T., 1990.
- Marshak B.I. Vliyaniye torevniki na sogdiyskuyu keramiku VII-VIII vv. // TGE, t. 5,

- Marshak B.I. Keramika i daty sloyev srednevekovykh pamyatnikov Sredney Azii // SA.№ 2. -M., 1971.
- Masson M.Ye. Omestonaxojdeniisada Timura Davlat-abat // Izvestiya Sredazkomstarisa. Vyp. 2. -T., 1928.
- Matbabayev B.X. K istorii kultury Fergany v epoxu rannego srednevekovya. -T., 2009.
- Merejin L.P. K xarakteristike keramicheskix pechen perioda rabovladieniya i rannego srednevekovya v Mervskom oazise // TYuTAKE. Vyp. XI.-A., 1962.
- Muxammadjanov A.R. K istorii irrigasii v Kushanskoyu epoxu. T-Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. -T., 1972.
- Nil'sen V.A. K voprosu o naznachenii sogdiyskogo zdaniya okolo Kafirkaly pod Samarkandom // IMKU. Vyp. 6. -T., 1965.
- Nil'sen V.A. Stanovlenin feodalnoy arxitektury. -T., 1966g.
- Pardayev M.X. Jizzax vohasining VII-VIII asrlardagi kulolchilik idishlari. // IMKU. Vyp. 30. 1999.
- Решырева Ye.M. Goncharnoye proizvodstvo Sredney Azii. -M., 1959. -S. 256
- Pugachenkova G.A. K interpretasii zdaniya bliz Kafirkaly. // Obshchestvennyye nauki v Uzbekistane. №2. -T., 2002.
- Sandiboyev A.N. Afsonalarda davlat tarixinining o'rganilishi. Samarkand universiteti. №8 (1085) 2008 yil
- Sandiboyev A.N. Ko'xna Termiz yodgorligi xususida. O'zbekiston tarixi asrlar silsilasida. -S., 2010.
- Semenov G.L. Sogdiyskaya fortifikatsiya. -SPb.. 1996..
- Sokolovskiy L.V. Neglazurovannaya keramika srednevekovogo Samarkanda, kak faktor ekonomika gorodskogo remesla (po materialom goroditsa Afrasiabkansa VII nachala XIII vv) // Diss. na soisk. uch. step. kand. ist. nauk. -T., 1995g.
- Suleymonov R.X. Ob istokax rannesrednevekovoy kultury drevney Buxarskogo oazisa // USA vyp. 4, -L., 1979.
- Suxarev I.A. Otchet po raskopkam zoroastriyskix nausov goroditsa Kafirkala // Arxiv GMIKIU, D. 568. -Samarkand, 1938.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.-T.,2004.

Xmelniskiy Mejdu kushanami i arabami. -Berlin-Riga. 2000

Shishkin V.A. K istorii arxeologicheskogo izucheniye Samarkanda i yego okrestnostey//Afrasiab. Vyp.1. -T., 1969.

Shishkin V.A.Uzbekistanskaya arxeologicheskaya ekspedisiya AN Uz SSR. (Polevyye raboty 1956-1959gg.)//IMKU. Vyp. 2. -T., 1961.

Shishkina G,V,Rannesredevekovayaselkayausadba pod Samarkandom.//IMKU. Vyp. 2. -T., 1961.

Shishkina G.V. Rannesrednevekovaya selskaya usadba pod Samarkandom.//IMKU. Vyp. 2.-T.,1961.

Yakubov Yu. Rannesrednevekovyye selskiye poseleniya gornogo Sogda. – Dushanbe, 1988.

G r e n e F. Les pratiques funeraires dans l'Asie Centrale sedentaire de la conquete grecque a l'islamisations. -Paris, 1984.

ShARTLI QISQARTMALAR

AI - Arxeologicheskiye issledovaniya v Uzbekistane. Samarkand - Tashkent.

AO - Arxeologicheskiye otkryitiya. Moskva.

ART - Arxeologicheskiye raboty v Tadjikistane. Dushanbe.

ASGE - Arxeologicheskiy sbornik Gosudarstvennogo Ermitaja. Leningrad / Sankt-Peterburg.

VDI - Vestnik drevney istorii. Moskva.

II NAN - Instituta Istorii Nasionalnoy akademii nauk.

IA AN - Institut Arxeologii Akademii Nauk. Moskva.

IAN - Izvestiya Akademii Nauk. Moskva

IGAIMK - Izvestiya Gosudarstvennoy Akademii istorii materialnoy kultury. Moskva.

Izv. UzFAN - Izvestiya Uzbekskogo filiala Akademii nauk SSSR. Tashkent.

IIMK - Institut istorii materialnoy kultury. Leningrad / Sankt-Peterburg.

IMKU - Istoriya materialnoy kultury Uzbekistana. Tashkent - Samarkand.

IOON - Izvestiya otdeleniya obshchestvennykh nauk. Moskva

KSIA - Kratkiye soobshcheniya Instituta arxeologii. AN SSSR. Moskva.

KSIIMK - Kratkiye soobshcheniya Institut istorii materialnoy kultury. Moskva-Leningrad.

KSIE - Kratkiye soobshcheniya Instituta etnografii. AN SSSR. Moskva-Leningrad.

MAIKSA - Mejdunarodnaya assosiasiya po izucheniyu kultur Sentralnoy Azii. Moskva.

407

MIA - Materialy i issledovaniya po arxeologii. SSSR. M.

MKT - Materialnaya kultura Tadjikistana. Dushanbe.

MNK - Mejdunarodnaya nauchnaya konferensiya.

MXE - Materialy Xorezmskoy arxeologo-etnograficheskoy ekspeditsii. Moskva.

ONU - Obshchestvennyye nauki v Uzbekistane. Tashkent.

RA - Rossiyskaya arxeologiya. Moskva.

SA - Sovetskaya arxeologiya. Moskva.

SAI - Svod arxeologicheskix istochnikov. Moskva.

SGE - Soobsheniye Gosudarstvennogo Ermitaja. Leningrad.

SE - Sovetskaya etnografiya. Moskva.

TGE - Trudy Gosudarstvennogo Ermitaja. Leningrad.

TD - Tezisy dokladov.

TII - Trudy Instituta istorii.

TIIA - Trudy Instituta istorii i arxeologii.

TIIAE - Trudy Instituta istorii, arxeologii i etnografii.

TKAEE - Trudy Kirgizskoy arxeologo-etnograficheskoy ekspeditsii.
Moskva.

TMI UzSSR - Trudy Muzeya istorii Uzbekskoy SSR. Tashkent.

SAGU - Sredneaziatskiy Gosudarstvennyy universitet. Tashkent.

TashGU - Tashkentskiy Gosudarstvennyy universitet.

TTKAEE - Trudy Tuvinskoy kompleksnoy ekspeditsii. Kyzyl.

TXAEE - Trudy Xorezmskoy arxeologo-etnograficheskoy ekspeditsii.
Moskva.

USA - Uspexi sredneaziatskoy arxeologii. Leningrad.

O'IF - O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. Toshkent.